E.M.MIRZAKARIMOV

OLIY MATEMATIKA FANIDAN LABORATORIYA ISHLARINI MAPLE DASTURIDA BAJARISH

"Excellent Polygraphy"
Toshkent – 2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

E.M.Mirzakarimov

OLIY MATEMATIKA

fanidan

LABORATORIYA
ishlarini
MAPLE dasturida
bajarish

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent
«Excellent Polygraphy»
2020

UO‘K: 51(075.8)
KBK: 22.16ya73
M 54

Oliy matematika fanidan labaratoriya ishlarini MAPLE dasturida bajarish / o‘quv qo‘llanma. E.M.Mirzakarimov – Toshkent: «Excelent polygraphy», 2020. – 208 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma texnika yo‘nalishi talabalari uchun, “Oliy matematika” fanidan o‘quv rejadagi 18 soatli, laboratoriya ishlarini MAPLE dasturlaridan foydalanib kompyuterda bajarish uchun mo‘ljallangan.

Qo‘llanmadagi laboratoriya ishlarida amaliyot masalalarni taqribiy yechishda ko‘p qo‘llaniladigan sonli usullari yordamida, chiziqli tenglamalar sistemalarini yechish, algebraik va transtsendent tenglamalarning ildizini aniqlash, aniq integrallarni taqribiy hisoblash, oddiy va xususiy hosilali differensial tenglamalarni taqribiy yechish, Lagrang va Nyuton iterpolyatsiya ko‘phadlarini topish, chiziqli va chiziqsiz regressiya tenglamalarini kichik kvadratlar usulida topish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Laboratoriya ishlari bo‘yicha hisoblash usullari va ularga mos masalalarni yechish uchun zaruriy nazariy ma’lumotlar berilgan. Masalalarni Maple tizimida yechish dasturlari tuzilgan.

Mustaqil ishlar uchun har bir mavzuga mos topshiriqlar berilgan.

Tuzuvchi:
E.M.MIRZAKARIMOV

Taqrizchilar:

A.Q.O‘rinov: – Farg‘ona davlat universiteti “Differensial tenglamalar” kafedrasi, fizika–matematika fanlari doktori, professor

F.Polvonov: – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali, “Axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi

A.Fozilov: – Farg‘ona politehnika instituti “Oliy matematika” kafedra dotsenti, fizika–matematika fanlar nomzodi

ISBN 978-9943-993-53-2

SO'ZBOSHI

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, o'z taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lgan xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimi barpo etilmoqda.

"Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi natijasida ilmiy--texnika taraqqiyoti yutuqlarini xalq xo'jaligiga tadbiq qilish ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liq ekanligining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Oliy o'quv yurtlarining texnika yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlashning yangi o'quv rejasi va dasturlarida kompyuter va axborot texnologiyalari bilan ishlashga, axborotlarga zamonaviy texnik vositalar yordamida ishlov berishga va uni tahlil qilishga, amaliy masalalarni yechishda sonli usullarni tadbiq qilinishiga katta e'tibor qaratilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma, 2011-yili tasdiqlangan o'quv rejasi asosida 5320200 "Mashinasozlik tehnalogiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jihozlash va avtomatlashtirish" ta'lim yo'nalishi, shuningdek 6 ta texnika yo'nalish talabalari uchun belgilangan 18 soatli reja asosida 3–semestrda o'tiladigan laboratoriya mashg'ulotlari uchun tayorlangan bo'lib, u Toshkent davlat texnika universitetida ishlab chiqarilgan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tamonidan 2012-yilgi 14-martdagi 102 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy matematika" faning namunaviy o'quv dasturidagi "Laboratoriya ishlari mazmuni va tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar" dagi tavsiya etilgan mavzularni o'z ichiga olgan.

Ushbu o'quv qo'llanma laboratoriya ishlaridagi sonli hisoblash masalalarini Maple dasturidan foydalanib kompyuterda yechish uchun mo'ljallangan.

1.3. Jardan–Gauss usulida matritsaga teskari matritsa topish.

1.1. Chiziqli tenglamalar sistemasini Gauss usulida yechish

Chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechishda keng tarqalgan Gauss usuli aniq yechish usullari guruhiga mansub bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, nomahlumlarni ketma – ket yo'qotish yo'li bilan berilgan sistema o'ziga ekvivalent bo'lgan pog'onali (uch burchakli) sistemaga keltiriladi. Bu kompyuter xotirasidan samarali ravishda foydalanish imkonini beradi .

Ushbu

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + a_{13}x_3 + \dots + a_{1n}x_n = b_1 \\ \qquad a_{22}x_2 + a_{23}x_3 + \dots + a_{2n}x_n = b_2 \\ \qquad \dots \quad \dots \quad \dots \\ \qquad\qquad a_{kk}\ x_k + a_{kn}x_n = b_k \end{cases} \tag{1.1}$$

ko'rinishdagi chiziqli tenglamalar sistemasi *pog'onali sistema* deyiladi, bu yerda $k \le n$, $a_{ii} \ne 0$, $i=1, 2, \dots, k$.

Agar $k=n$ bo'lsa, u holda (1.1) sistema *uch burchakli* deyiladi.

Noma'lumlarni ketma-ket yo'qotib borish, asosan, sistemada elementar almashtirishlar qilish yordamida amalga oshiriladi. Bu elementar almashtirishlarga quyidagilar kiradi:

1) sistemaga tegishli istalgan ikkita tenglamaning o'rnini almashtirish;

2) tenglamalardan birining har ikkala qismini noldan farqli istalgan songa ko'paytirish;

3) biror tenglamaning har ikkala qismiga, biror songa ko'paytirilgan ikkinchi tenglamaning mos qismlarini qo'shish.

Berilgan tenglamalar sistemasidagi elementar almashtirishlar natijasida hosil bo'lgan sistemani berilgan sistemaga ekvivalent bo'lishini isbotlash mumkin.

Oddiylik uchun quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini qaraymiz:

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + a_{13}x_3 + a_{14}x_4 = a_{15}, \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + a_{23}x_3 + a_{24}x_4 = a_{25}, \\ a_{31}x_1 + a_{32}x_2 + a_{33}x_3 + a_{34}x_4 = a_{35}, \\ a_{41}x_1 + a_{42}x_2 + a_{43}x_3 + a_{44}x_4 = a_{45}. \end{cases}$$

Berilgan chiziqli tenglamalar sistemasi yechimga ega bo'lishi uchun sistemaning noma'lumlarining koeffisentlaridan tuzilgan *A* matrisa va barcha koeffisentlaridan, ya'ni ozod hadlarni hisobga olib tuzilgan *Ab* krngaytirilgan matrisa ranglari teng bo'lishi zarur, yani bu matrisalarning har biridan tuzilgan to'rtinchi tartibli determinattan birotsi noldan farqli bo'lishi kerak: $r(A)=r(Ab)$.

Aytaylik, berilgan sistemada $a_{11} \neq 0$ (yetakchi element) bo'lsin, aks holda x_1 oldidagi koeffitsienti noldan farqli bo'lgan tenglamani birinchi tenglama o'ringa ko'chiramiz.

Sistemaning birinchi tenglamasining barcha koeffitsientlarini a_{11} ga bo'lib,

$$x_1 + b_{12}x_2 + b_{13}x_3 + b_{14}x_4 = b_{15} \qquad (1.2)$$

tenglamani hosil qilamiz, bu yerda.

$$b_{1j} = \frac{a_{1j}}{a_{11}}, \quad j = 2,3,4,5.$$

Bu topilgan (1.2) tenglamadan foydalanib, yuqoridagi sistemaning qolgan tenglamalaridagi x_1 qatnashgan hadni yo'qotish mumkin. Buning uchun (1.2) tenglamani ketma-ket a_{21}, a_{31} va a_{41} larga ko'paytirib, mos ravishda sistemaning ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi tenglamalaridan ayiramiz.

Natijada quyidagi uchta tenglamalar sistemasini hosil qilamiz.

$$\begin{cases} a_{22}^{(1)}x_2 + a_{23}^{(1)}x_3 + a_{24}^{(1)}x_4 = a_{25}^{(1)}, \\ a_{32}^{(1)}x_2 + a_{33}^{(1)}x_3 + a_{34}^{(1)}x_4 = a_{35}^{(1)}, \\ a_{42}^{(1)}x_2 + a_{43}^{(1)}x_3 + a_{44}^{(1)}x_4 = a_{45}^{(1)}. \end{cases} \qquad (1.3)$$

bu sistemadagi $a_{ij}^{(1)}$ koeffitsientlar

$$a_{ij}^{(1)} = a_{ij} - a_{i1}b_{1j} \quad (i=2,3,4;\ j=2,3,4,5) \qquad (1.4)$$

formula yordamida hisoblanadi. Endi (1.3) sistemaning birinchi tenglamasini $a_{22}^{(1)}$ ga bo'lib,

$$x_2 + b_{23}^{(1)}x_3 + b_{24}^{(1)}x_4 = b_{25}^{(1)} \qquad (1.5)$$

tenglamani hosil qilamiz, bu yerda

$$b_{2j}^{(1)} = \frac{a_{2j}^{(1)}}{a_{22}}, \quad (j = 3,4,5)$$

(1.5) tenglama yordamida (1.3) sistemaning keyingi tenglamalaridan x_2 ni, yuqoridagidek qoida asosida yo'qotamiz va quyidagi tenglamalar sistemasini topamiz:

$$\begin{cases} a_{33}^{(2)}x_3 + a_{34}^{(2)}x_4 = a_{35}^{(2)} \\ a_{43}^{(2)}x_3 + a_{44}^{(2)}x_4 = a_{45}^{(2)} \end{cases} \qquad (1.6)$$

bu yerda

$$a_{ij}^{(2)} = a_{ij}^{(1)} - a_{i2}^{(1)} b_{2j}^{(1)} \qquad (i = 3,4; \quad j = 3,4,5) \qquad (1.7)$$

(1.6) sistemaning birinchi tenglamasini $a_{33}^{(2)}$ ga bo'lib,

$$x_3 + b_{34}^{(2)} x_4 = b_{35}^{(2)} \qquad (1.8)$$

tenglamani hosil qilamiz, bu yerda

$$b_{3j}^{(2)} = \frac{a_{3j}^{(2)}}{a_{33}^{(2)}}, \qquad (j = 4,5)$$

Bu (1.8) tenglama yordamida (1.6) sistemaning ikkinchi tenglamasidan x_3 ni yo'qotamiz. Natijada

$$a_{44}^{(3)} x_4 = a_{45}^{(3)}$$

tenglamani hosil qilamiz, bu yerda

$$a_{4j}^{(3)} = a_{4j}^{(2)} - a_{43}^{(2)} b_{3j}^{(2)} \qquad (j = 4,5) \qquad (1.9)$$

Shunday qilib biz qaralayotgan sistemasini unga ekvivalent bo'lgan quyidagi *uchburchakli chiziqli* tenglamalar sistemasiga olib keldik.

$$\left.\begin{array}{l} x_1 + b_{12}x_2 + b_{13}x_3 + b_{14}x_4 = b_{15} \\ \quad x_2 + b_{23}^{(1)}x_3 + b_{24}^{(1)}x_4 = b_{25}^{(1)} \\ \quad\quad x_3 + b_{34}^{(2)}x_4 = b_{35}^{(2)} \\ \quad\quad\quad a_{44}^{(3)}x_4 = b_{45}^{(3)} \end{array}\right\} \qquad (1.10)$$

Bu (1.10) sistemadan foydalanib nom'lumlarni, ketma-ket quyidagicha topamiz:

$$\begin{cases} x_4 = \dfrac{a_{45}^{(3)}}{a_{44}^{(3)}} \\ x_3 = b_{35}^{(2)} - b_{34}^{(2)} x_4 \\ x_2 = b_{25}^{(1)} - b_{24}^{(1)} x_4 - b_{23}^{(1)} x_3 \\ x_1 = b_{15} - b_{14} x_4 - b_{13} x_3 - b_{12} x_2 \end{cases} \qquad (1.11)$$

Demak, yuqorida keltirilgan Gauss usulida sistemaning yechimini topish 2 qismdan iborat bo'lar ekan.

Olg'a borish – (1.1) sistemani uchburchakli (1.10) sistemaga keltirish

Orqaga qaytish – (1.11) formulalar yordamida noma'lumlarni topish.

Gauss usuli bilan noma'lumli n ta chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechish uchun bajariladigan arifmetik amallarning miqdori quyidagidan iborat:

$(n^3+3n^2-n)/3$ ta ko‘paytirish va bo‘lish,

$(2n^3+3n^2-5n)/6$ ta qo‘shish.

Xususan:

$n=2$ da, $(2^3+3\cdot2^2-2)/3=6$. ko‘paytirish va bo‘lish

$(2\cdot2^3+3\cdot2^2-5\cdot2)/6=3$. qo‘shish,

$n=3$ da, $(3^3+3\cdot3^2-3)/3=17$ ko‘paytirish va bo‘lish

$(2\cdot3^3+3\cdot3^2-5\cdot3)/6=11$. qo‘shish,

$n=4$ da, $(4^3+3\cdot4^2-a)/3=36$ ko‘paytirish va bo‘lish

$(2\cdot4^3+3\cdot4^2-5\cdot4)/6=26$ qo‘shish.

1.1–masala. Berilgan quyidagi sistemani Gauss usilida yechamiz. Buning uchun nomahlumlarni ketma–ket yo‘qotamiz. Yetakchi satr uchun birinchi tenglamani tanlasak bo‘ladi, chunki

$a_{11}=2\neq0$.

$$\begin{cases} 2x_1+7x_2+13x_3=0 \\ 3x_1+14x_2+12x_3=18 \\ 5x_1+25x_2+16x_3=39 \end{cases} \qquad (1.12)$$

Gauss usili yordamida yechish uchun sistemaning satrlar bo‘yicha koeffitsientlarini quyidagicha belgilaymiz:

$$\begin{matrix} a_{11}=2, a_{12}=7, a_{13}=13 b_1=0[1] \\ a_{21}=3, a_{22}=14, a_{23}=12 b_2=18[2] \\ a_{31}=5, a_{32}=25, a_{33}=16 b_3=39[3] \end{matrix} \qquad (1.13)$$

Hisoblash jarayoni quyidagicha bo‘ladi.

Olg‘a borish.

1) (1.13) dagi 1–satr elementlarini $a_{11}=2$ ga bo‘lamiz, ya’ni [1]/2:

$(1,\ a_{12}/a_{11},\ a_{13}/a_{11},\ b_1/a_{11})=(1,\ 7/2,\ 13/2,\ 0/2)$ (1.14)

2) (1.13) ning 2- satridagi $a_{21}=3$ elementni nolga aylantirish uchun, (1.14) ni $a_{21}=3$ ga ko‘paytirib, [2] satr elementlaridan mos ravishda ayiramiz, ya’ni [2] –(1.14) a_{21}:

$$a^{(0)}_{21}=a_{21}-a_{21}=0$$

$$a^{(0)}_{22}=a_{22}-a_{21}a_{12}/a_{11}=14-3(2/2)=7/2$$

$a^{(0)}_{23}=a_{23}-a_{21}a_{13}/a_{11}=12-3(6/2)=-15/2$

$b^{(0)}_1=b_1-a_{21}b_1/a_{11}=18-3(0/2)=18$

Demak, 2– tenglama koeffitsentlari:

$$(0,\ 7/2,\ -15/2,\ 18) \qquad (1.15)$$

bo‘ladi.

3) (1.13) ning 3– satridagi $a_{31}=5$ elementni nolga aylantirish uchun (1.14) ni $a_{31}=5$ ga ko‘paytirib, [3] satr elementlaridan mos ravishda ayiramiz, ya’ni [3] –(1.14) a_{31}:

$a^{(0)}_{31}=a_{31}-a_{31}=0$

$a^{(0)}_{32}=a_{32}-a_{31}a_{12}/a_{11}=25-5(7/2)=15/2$

$a^{(0)}_{33} = a_{33} - a_{31}a_{13}/a_{11} = 16 - 5(6/2) = -33/2$

$b^{(0)}_3 = b_3 - a_{31}b_1/a_{11} = 39 - 5(0/2) = 39$

Demak, 3– tenglama koeffitsentlari:

$$(0,\ 15/2,\ -33/2,\ 39) \qquad (1.16)$$

bo'ladi. Natijada topilgan yangi koeffitsientlar asosida quyidagi sistemani hosil qilamiz:

$$\begin{cases} x_1 + (7/2)x_2 + (13/2)x_3 = 0 \\ (7/2)x_2 - (15/2)x_3 = 18 \\ (15/2)x_2 - (33/2)x_3 = 39 \end{cases} \qquad (1.17)$$

Bu sistemaning koeffitsentlari:

$$a_{11}=1,\ a_{12}=7/2,\ a_{13}=13/2, b_1 = 0[1]$$
$$a_{21}=0, a_{22}=7/2, a_{23}=-15/2, b_2=18[2] \qquad (1.13)$$
$$a_{31}=0, a_{32}=15/2, a_{33}=-33/2, b_3=39[3]$$

(1.13) ni [2] – satrini 7/2 ga bo'lamiz. Bu tenglama koeffitsentlari:

$$(0,\ 1,\ -15/7,\ 36/7) \qquad (1.18)$$

bo'ladi. (1.17) sistemaning 3–tenglamalaridan x_2 noma'lumni yo'qotish

uchun (1.18) ni 15/2 ga ko'paytirib 3–satr koeffitsentlardan mos ravishda ayirib, quyidagi koeffitsentlar topamiz, ya'ni [3]– (1.18) a_{32}:

$$(0,\ 0,\ -3/7,\ 3/7) \qquad (1.19)$$

Natijada berilgan sistemani quyidagicha yozamiz:

$$\begin{cases} x_1 + (7/2)x_2 + (13/2)x_3 = 0 \\ x_2 - (15/7)x_3 = 36/7 \\ -(3/7)x_3 = 3/7 \end{cases}$$

Orqaga qaytish.

Bu oxirgi sistemadagi 3–tenglamadan x_3 qiymatini topib bu asosida 2–tenglamadan x_2 ni topamiz. Topilgan x_2 va x_3 asosida 1– tenglamadan x_1 ni topamiz:

$x_3 = -1$

$x_2 = 36/7 + (15/7)(-1) = 21/7 = 3$

$x_1 = (-7/2)(3) - (13/2)(-1) = -8/2 = -4$

Berilgan chiziqli tenglamalar sistemasining yechimi:

$$x_1 = -4,\ x_2 = 3,\ x_3 = -1$$

1.1.1–M a p l e d a s t u r i:

1) *Gauss usilida yechish:*

> with(LinearAlgebra):

A := <<2,3,5>|<7,14,25>|<13,12,16>>; $A := \begin{bmatrix} 2 & 7 & 13 \\ 3 & 14 & 12 \\ 5 & 25 & 16 \end{bmatrix}$

> b := <0,18,39>; $b := \begin{bmatrix} 0 \\ 18 \\ 39 \end{bmatrix}$

2)*kengaytirilgan matritsani tuzish:*

> Ab:= <<2,3,5>|<7,14,25>|<13,12,16>|<0,18,39>>;

$$Ab := \begin{bmatrix} 2 & 7 & 13 & 0 \\ 3 & 14 & 12 & 18 \\ 5 & 25 & 16 & 39 \end{bmatrix}$$

Sistema yechimga ega bo'lishini asosiy va kengaytirilgan matritsalarning rangini tengligidan aniqlaymiz:

> Rank(A); 3

> Rank(Ab); 3

asosiy matritsaga Gauss usulini qo'llash:

> GaussianElimination(A); $\begin{bmatrix} 2 & 7 & 13 \\ 0 & \frac{7}{2} & \frac{-15}{2} \\ 0 & 0 & \frac{-3}{7} \end{bmatrix}$

> GaussianElimination(A,'method'='FractionFree');

$$\begin{bmatrix} 2 & 7 & 13 \\ 0 & 7 & -15 \\ 0 & 0 & -3 \end{bmatrix}$$

> ReducedRowEchelonForm(`<|>`(A, b));

$$\begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 & -4 \\ 0 & 1 & 0 & 3 \\ 0 & 0 & 1 & -1 \end{bmatrix}$$

2)*KENGAYTIRILGAN matritsa yordamida yechimni topish*

```
> restart; with(Student[LinearAlgebra]):
>A:=<<2,3,5>|<7,14,25>|<13,12,16>|<0,18,39>>;
```

$$A := \begin{bmatrix} 2 & 7 & 13 & 0 \\ 3 & 14 & 12 & 18 \\ 5 & 25 & 16 & 39 \end{bmatrix}$$

```
> X:=LinearSolve(A);
```

$$X := \begin{bmatrix} -4 \\ 3 \\ -1 \end{bmatrix}$$

Chiziqli tenglamalar sistemasini, kengaytirilgan matritsa asosida Tutor oynasida yechimini topish:

```
> LinearSolveTutor(A);
```



Endi quyidagi to'rt noma'lumli chiziqli tenglamalar sistemaning yechimni kengaytirilgan matritsasi asosida topishdagi amallar ketma–ketligini Maple dasturida bajarishni ko'rsatamiz.

$$\begin{cases} x_1 - 5x_2 - x_3 + 3x_4 = -5, \\ 2x_1 + 3x_2 + x_3 - x_4 = 4, \\ 3x_1 - 2x_2 + 3x_3 + 4x_4 = -1, \\ 5x_1 + 3x_2 + 2x_3 + 2x_4 = 0. \end{cases}$$

1. Gauss usulini qo'llashda amallar ketma–ketligini bajarish.

1.1.2–Maple dasturi:

> restart;with(Student[LinearAlgebra]):

> A := <<1,2,3,5>|<–5,3,–2,3>|<–1,1,3,2>|<3,–1,4,2>>;

$$A := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 \\ 2 & 3 & 1 & -1 \\ 3 & -2 & 3 & 4 \\ 5 & 3 & 2 & 2 \end{bmatrix}$$

a)*asosiy matritsa determinantini hisoblash*:

> d:=Determinant(A); $d := 67$

b) *kengaytirilgan matritsa uchun Gauss usulining amallar ketma-ketligini bajarish:*

> with(linalg):

> B:=matrix([[1,–5,–1,3,–5],[2,3,1,–1,4],[3,–2,3,4, –1], [5,3,2,2,0]]);

$$B := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 & -5 \\ 2 & 3 & 1 & -1 & 4 \\ 3 & -2 & 3 & 4 & -1 \\ 5 & 3 & 2 & 2 & 0 \end{bmatrix}$$

> B[1,1]; 1

> B1:=mulrow(B,1,1/B[1,1]); $B1 := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 & -5 \\ 2 & 3 & 1 & -1 & 4 \\ 3 & -2 & 3 & 4 & -1 \\ 5 & 3 & 2 & 2 & 0 \end{bmatrix}$

> B2:=addrow(B1,1,2,–B1[2,1]); $B2 := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 & -5 \\ 0 & 13 & 3 & -7 & 14 \\ 3 & -2 & 3 & 4 & -1 \\ 5 & 3 & 2 & 2 & 0 \end{bmatrix}$

> B3:=addrow(B2,1,3,–B1[3,1]); $B3 := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 & -5 \\ 0 & 13 & 3 & -7 & 14 \\ 0 & 13 & 6 & -5 & 14 \\ 5 & 3 & 2 & 2 & 0 \end{bmatrix}$

> B4:=addrow(B3,1,4,–B1[4,1]);

$$B4 := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 & -5 \\ 0 & 13 & 3 & -7 & 14 \\ 0 & 13 & 6 & -5 & 14 \\ 0 & 28 & 7 & -13 & 25 \end{bmatrix}$$

> B3[2,2]; 13

> B5:=mulrow(B4,2,1/B4[2,2]);

$$B5 := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 & -5 \\ 0 & 1 & \frac{3}{13} & -\frac{7}{13} & \frac{14}{13} \\ 0 & 13 & 6 & -5 & 14 \\ 0 & 28 & 7 & -13 & 25 \end{bmatrix}$$

> B6:=addrow(B5,2,3,–B5[3,2]);

$$B6 := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 & -5 \\ 0 & 1 & \frac{3}{13} & -\frac{7}{13} & \frac{14}{13} \\ 0 & 0 & 3 & 2 & 0 \\ 0 & 28 & 7 & -13 & 25 \end{bmatrix}$$

> B7:=addrow(B6,2,4,–B5[4,2]);

$$B7 := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 & -5 \\ 0 & 1 & \frac{3}{13} & -\frac{7}{13} & \frac{14}{13} \\ 0 & 0 & 3 & 2 & 0 \\ 0 & 0 & \frac{7}{13} & \frac{27}{13} & -\frac{67}{13} \end{bmatrix}$$

> B7[3,3]; 3

> B8:=mulrow(B7,3,1/B7[3,3]);

$$B8 := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 & -5 \\ 0 & 1 & \frac{3}{13} & -\frac{7}{13} & \frac{14}{13} \\ 0 & 0 & 1 & \frac{2}{3} & 0 \\ 0 & 0 & \frac{7}{13} & \frac{27}{13} & -\frac{67}{13} \end{bmatrix}$$

> B9:=addrow(B8,3,4,–B8[4,3]);

$$B9 := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 & -5 \\ 0 & 1 & \frac{3}{13} & -\frac{7}{13} & \frac{14}{13} \\ 0 & 0 & 1 & \frac{2}{3} & 0 \\ 0 & 0 & 0 & \frac{67}{39} & -\frac{67}{13} \end{bmatrix}$$

> B9[4,4]; $\frac{67}{39}$

> B10:=mulrow(B9,4,1/B9[4,4]);

$$B10 := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 & -5 \\ 0 & 1 & \frac{3}{13} & -\frac{7}{13} & \frac{14}{13} \\ 0 & 0 & 1 & \frac{2}{3} & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 1 & -3 \end{bmatrix}$$

Yetakchi elementlar asosida asosiy matritsa determinantini hisoblash:

> d:= B[1,1]*B3[2,2]*B7[3,3]*B9[4,4]*1; $d := 67$

2. Berilgan sistemaning kengaytirilgan matritsasiga Gauss usulini qo'llash ketma–ketni Tutor oynasida ko'rsatamiz.

1.1.3–M a p l e d a s t u r i:

> **restart; with(Student[LinearAlgebra]):**

> **Ab := <<1,2,3,5>|<–5,3,–2,3>|<–1,1,3,2>|<3,–1,4,2>|<–5,4,–1,0>>;**

$$A := \begin{bmatrix} 1 & -5 & -1 & 3 & -5 \\ 2 & 3 & 1 & -1 & 4 \\ 3 & -2 & 3 & 4 & -1 \\ 5 & 3 & 2 & 2 & 0 \end{bmatrix}$$

> **LinearSolveTutor(Ab);** (1.1– rasm)



1.1– rasm.

Gauss usulida topilgan oxirgi matritsa asosida tuzilgan ekvivalent sistemani Tutor oynasida yechimini topish(1.2– rasm):




Solve the system of equations in Row Echelon Form
Linear System of Equations
Solve
x1 - 5 x2 - x3 + 3 x4 = -5
13 x2 + 3 x3 - 7 x4 = 14
3 x3 + 2 x4 = 0
67/39 x4 = -67/13
x1 - 5 x2 - x3 + 3 x4 = -5
13 x2 + 3 x3 - 7 x4 = 14
3 x3 + 2 x4 = 0
x4 = -3
solve x[4]
Equations
Solve x[4]
Solve x[3]
Change the matrix
Cancel


Solve the system of equations in Row Echelon Form
Linear System of Equations
Solve
x1 - 5 x2 - x3 + 3 x4 = -5
13 x2 + 3 x3 - 7 x4 = 14
3 x3 + 2 x4 = 0
x4 = -3
x1 - 5 x2 - x3 + 3 x4 = -5
13 x2 + 3 x3 - 7 x4 = 14
x3 = 2
x4 = -3
solve x[4]
solve x[3]
Equations
Solve x[4]
Solve x[3]
Solve x[2]
Change the matrix
Cancel


Solve the system of equations in Row-Echelon Form
Linear System of Equations
Solve
Equations
Solve x[4]
Solve x[3]
Solve x[2]
Solve x[1]
Solution
Change the matrix
Cancel

1.2– rasm.

1.2. Gauss usulida determinantni hisoblash

Determinantlarning tartibi (satr va ustunlar soni) katta bo'lganda determinantlarni hisoblash qiyin bo'ladi. Shuning uchun bu determinantlarni Gauss usuli asosida hisoblash qulay. Bu usulni namuna sifatida quyidagi determinant uchun bajaramiz.

1.2–masala. Quyidagi determinantni Gauss usuli asosida hisoblang.

$$d = \begin{vmatrix} 2 & 7 & 13 \\ 3 & 14 & 12 \\ 5 & 25 & 16 \end{vmatrix}$$

Yechish. Gauss usuli bo'yicha uchburchak determinant hosil qilish uchun, determinantning bosh diogonal elementlarini 1 ga va ostidagi elementlarini nolga aylantiramiz.

Berilgan determinantdagi birinchi satrning yetakchi $a_{11}=2\neq0$ elementini determinant belgisidan tashqariga chiqaramiz:

$$d = 2\begin{vmatrix} 1 & 7/2 & 13/2 \\ 3 & 14 & 12 \\ 5 & 25 & 16 \end{vmatrix}$$

hosil bo'lgan determinantda birinchi satr elementlarini ketma–ket 3 va 5 larga ko'paytirib, mos ravishda 2– va 3– satrlarning elementlaridan ayiramiz:

$$d = 2\begin{vmatrix} 1 & 7/2 & 13/2 \\ 0 & 7/2 & -15/2 \\ 0 & 15/2 & -33/2 \end{vmatrix}$$

Bu determinantning ikkinchi satridagi yetakchi $a_{22}^{(1)}=7/2$ elementini determinant belgisidan tashqariga chiqaramiz:

$$d = 2\cdot(7/2)\begin{vmatrix} 1 & 7/2 & 13/2 \\ 0 & 1 & -15/7 \\ 0 & 15/2 & -33/2 \end{vmatrix}$$

hosil bo'lgan determinantda ikkinchi satr elementlarini 15/2 ga ko'paytirib, mos ravishda 3– satrdan ayiramiz:

$$d = 2\cdot(7/2)\begin{vmatrix} 1 & 7/2 & 13/2 \\ 0 & 1 & -15/7 \\ 0 & 0 & -3/7 \end{vmatrix}$$

hosil bo'lgan determinantning oxirgi satridagi yetakchi $a_{33}^{(2)}=-3/7$ elementini determinant belgisidan tashqariga chiqaramiz:

$$d = 2 \cdot (7/2) \cdot (-3/7) \begin{vmatrix} 1 & 7/2 & 13/2 \\ 0 & 1 & -15/7 \\ 0 & 0 & 1 \end{vmatrix}$$

hosil bo'lgan determinant diagonal elementlari 1 sonidan va diagonal ostidagi elementlari 0 dan iborat bo'lgani uchun uning qiymati 1 ga teng. Natijada asosiy determinant qiymati yetakchi elementlar ko'paytmasidan iborat bo'ladi:

$$d = a_{11}\, a_{22}^{(1)}\, a_{33}^{(2)} \cdot 1 = 2 \cdot (7/2) \cdot (-3/7) \cdot 1 = -3.$$

Xuddi shuningdek Gauss usuli bilan qolgan determinantlarni ham hisoblash mumkin.

2. Yuqoridagi Gauss usulini $n \times n$ tartibli determinant uchun hisoblash formulasini beramiz:

$$d = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix}$$

Bu determinant qiymati Gauss usulini qo 'llash jarayonida aniqlanadigan yetakchi elementlar ko'paytmasidan iborat bo'ladi:

$$d = \det A = a_{11} a_{22}^{(1)} a_{33}^{(2)} \cdots a_{nn}^{(n-1)}$$

Bu yetakchi elementlarni quyidagi formulalar asosida hisoblaymiz:

$i=1$,

$$b_{1j} = a_{1j} / a_{11}, \qquad j = 2,3,\dots,n$$

$$a_{ij}^{(1)} = a_{ij} - a_{i1}\, b_{1j}, \qquad i = 2,3,\dots,n$$

$i=2$,

$$b_{2j}^{(1)} = a_{2j}^{(1)} / a_{22}^{(1)}, \qquad j = 2,3,\dots,n$$

$$a_{ij}^{(2)} = a_{ij}^{(1)} - a_{i2}^{(1)}\, b_{2j}^{(1)}, \qquad i = 2,3,\dots,n$$

. . . .

Agar berilgan determinant yetakchi satridagi yetakchi element $a_{11}=0$ bo'lsa, bu satrni yetakchi elementi noldan farqli bo'lgan satr bilan almashtiramiz.

Bu determinantni Gauss usuli asosida Maple dasturida hisoblash ketma–ketligini ko'rsatamiz.

1.2–Maple dasturi:

1)*misolda ko'rsatilgan tartibi bo'yicha hisoblash* **:**

> restart;with(linalg):

> A:=matrix([[2,7,13],[3,14,12],[5,25,16]]);

$$A := \begin{bmatrix} 2 & 7 & 13 \\ 3 & 14 & 12 \\ 5 & 25 & 16 \end{bmatrix}$$

> A[1,1]; 2

> A1:=mulrow(A,1,1/A[1,1]); $A1 := \begin{bmatrix} 1 & \frac{7}{2} & \frac{13}{2} \\ 3 & 14 & 12 \\ 5 & 25 & 16 \end{bmatrix}$

> A2:=addrow(A1,1,2,–3); $A2 := \begin{bmatrix} 1 & \frac{7}{2} & \frac{13}{2} \\ 0 & \frac{7}{2} & -\frac{15}{2} \\ 5 & 25 & 16 \end{bmatrix}$

> A3:=addrow(A2,1,3,–5); $A3 := \begin{bmatrix} 1 & \frac{7}{2} & \frac{13}{2} \\ 0 & \frac{7}{2} & -\frac{15}{2} \\ 0 & \frac{15}{2} & -\frac{33}{2} \end{bmatrix}$

> A3[2,2]; $\frac{7}{2}$

> A4:=mulrow(A3,2,1/A3[2,2]); $A4 := \begin{bmatrix} 1 & \frac{7}{2} & \frac{13}{2} \\ 0 & 1 & -\frac{15}{7} \\ 0 & \frac{15}{2} & -\frac{33}{2} \end{bmatrix}$

> **A5:=addrow(A4,2,3,–15/2);** $A5 := \begin{bmatrix} 1 & \frac{7}{2} & \frac{13}{2} \\ 0 & 1 & -\frac{15}{7} \\ 0 & 0 & -\frac{3}{7} \end{bmatrix}$

> **A5[3,3];** $-\frac{3}{7}$

> **A6:=mulrow(A5,3,1/A5[3,3]);** $A6 := \begin{bmatrix} 1 & \frac{7}{2} & \frac{13}{2} \\ 0 & 1 & -\frac{15}{7} \\ 0 & 0 & 1 \end{bmatrix}$

> **d:= A[1,1]*A3[2,2]*A5[3,3]*det(A6);** $d := -3$

2) GaussianElimination *amali asosida topilgan matritsa determinantini hisoblash*:

> **restart; with(LinearAlgebra):**

A := <<2,3,5>|<7,14,25>|<13,12,16>>; $A := \begin{bmatrix} 2 & 7 & 13 \\ 3 & 14 & 12 \\ 5 & 25 & 16 \end{bmatrix}$

> **A:=GaussianElimination(A);** $A := \begin{bmatrix} 2 & 7 & 13 \\ 0 & \frac{7}{2} & -\frac{15}{2} \\ 0 & 0 & -\frac{3}{7} \end{bmatrix}$

> **d:=Determinant(A);** $d := -3$

1.3. Matritsaga teskari matritsa topish

Teskari matritsa topishning ikki xil usulini beramiz.

1.3.2. Formula bo‘yicha topish.

1.3.2. Jardan–Gauss usulida teskari matritsa topish.

1.3.2. Chiziqli tenglamalar sistemasini teskari matritsa topish asosida yechish.

1.3-masala. Quyidagi berilgan A matitsaga teskari A^{-1} matritsani toping.

$$A=\begin{pmatrix} 4 & 3 & 1 \\ 2 & -1 & -1 \\ 7 & 1 & -3 \end{pmatrix}$$

1.3.1. Formula asosida topish

A matitsaga teskari A^{-1} matritsani quyidagi formula asosida topiladi.

$$A^{-1}=\frac{1}{\Delta}\begin{pmatrix} A_{11} & A_{21} & A_{31} \\ A_{12} & A_{22} & A_{32} \\ A_{13} & A_{23} & A_{33} \end{pmatrix} \qquad (**)$$

Bu uchunchi tartibli A matritsaga teskari matritsa topish formulasi bo'lib, bunda $\Delta=\det(A)$ – A matritsa determnanti, $A_{ij}(i,j=1,2,3)$ elementlar Δ determinantning a_{ij} $(i,j=1,2,3)$ elementlariga mos keluvchi algebraik to'ldiruvchilari.

Teskari matritsani topish uchun A matritsa detreminanti Δ ni tuzamiz va hisoblaymiz, so'ngra uning algebraik to'ldiruvchilarini topamiz.

1) A matritsaning determinanti hisoblaymiz:

$$\Delta=det(A)=\begin{vmatrix} 4 & 3 & 1 \\ 2 & -1 & -1 \\ 7 & 1 & -3 \end{vmatrix}=22,\ \Delta=detA=22\neq 0.$$

2)Bu holda A^{-1} matritsaning elementlarini $det(A)$ determinantning a_{ij} elementlariga mos kelgan A_{ij} algebraik to'ldiruvchilarni quyidagicha topamiz.

$$A_{11}=(-1)^{1+1}\begin{vmatrix} -1 & -1 \\ 1 & -3 \end{vmatrix}=4,\quad A_{21}=(-1)^{2+1}\begin{vmatrix} 3 & 1 \\ 1 & -3 \end{vmatrix}=10,$$

$$A_{31}=(-1)^{3+1}\begin{vmatrix} 3 & 1 \\ -1 & -1 \end{vmatrix}=-2$$

$$A_{12}=(-1)^{1+2}\begin{vmatrix} 2 & -1 \\ 7 & -3 \end{vmatrix}=-1,\quad A_{22}=(-1)^{2+2}\begin{vmatrix} 4 & 1 \\ 7 & -3 \end{vmatrix}=-19,$$

$$A_{32}=(-1)^{3+2}\begin{vmatrix} 4 & 1 \\ 2 & -1 \end{vmatrix}=6$$

$$A_{13}=(-1)^{1+3}\begin{vmatrix}2 & -1\\ 7 & 1\end{vmatrix}=9,\quad A_{23}=(-1)^{2+3}\begin{vmatrix}4 & 3\\ 7 & 1\end{vmatrix}=17,$$

$$A_{33}=(-1)^{3+3}\begin{vmatrix}4 & 3\\ 2 & -1\end{vmatrix}=-10$$

A matritsaning determinanti va A_{ij} algebraik to‘ldiruvchilarining qiymatlari asosida quyidagi A^{-1} matritsani yozamiz:

$$A^{-1}=\begin{pmatrix}4/22 & 10/22 & -2/22\\ -1/22 & -19/22 & 6/22\\ 9/22 & 17/22 & -10/22\end{pmatrix}=\begin{pmatrix}2/11 & 5/11 & -1/11\\ -1/22 & -19/22 & 3/11\\ 9/22 & 17/22 & -5/11\end{pmatrix}$$

Matritsaga teskari matritsa topish formulasi yordamida hisoblashning Maple dasturini beramiz.

1.3.1–M a p l e d a s t u r i:

> restart; with(Student[LinearAlgebra]):

> A := <<4,2,7>|<3,–1,1>|<1,–1,–3>>; $A := \begin{bmatrix}4 & 3 & 1\\ 2 & -1 & -1\\ 7 & 1 & -3\end{bmatrix}$

Berilgan matrisaning determinantini hisoblash :

> d:=Determinant(A); $d := 22$

A^{-1} *teskari matrisaning elementlari :*

> A11:=(–1)^(1+1)*Minor(A,1,1); $A11 := 4$

> A12:=(–1)^(1+2)*Minor(A,1,2); $A12 := -1$

> A13:=(–1)^(1+3)*Minor(A, 1, 3); $A13 := 9$

> A21:=(–1)^(2+1)*Minor(A, 2, 1); $A21 := 10$

> A22:=(–1)^(2+2)*Minor(A, 2, 2); $A22 := -19$

> A23:=(–1)^(2+3)*Minor(A, 2, 3); $A23 := 17$

> A31:=(–1)^(3+1)*Minor(A, 3, 1); $A31 := -2$

> A32:=(–1)^(3+2)*Minor(A, 3, 2); $A32 := 6$

> A33:=(–1)^(3+3)*Minor(A, 3, 3); $A33 := -10$

teskari matrisani topsh :

> A := <<A11,A12,A13>|<A21,A22,A23>|<A31,A32,A33>>/d;

$$A := \begin{vmatrix} \frac{2}{11} & \frac{5}{11} & -\frac{1}{11} \\ -\frac{1}{22} & -\frac{19}{22} & \frac{3}{11} \\ \frac{9}{22} & \frac{17}{22} & -\frac{5}{11} \end{vmatrix}$$

1.3.2. Jardan–Gauss usulida teskari matritsa topish

Berilgan yuqori tartibli A matritsaga teskari $B=A^{-1}$ matritsani Jordan-Gauss usulida topish uchun quyidagicha kengaytirilgan matritsani tuzamiz.

$$\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \dots a_{1n} & \vdots & b_{11} & b_{12} \dots b_{1n} \\ a_{21} & a_{22} \dots a_{2n} & \vdots & b_{21} & b_{22} \dots b_{2n} \\ \dots\dots & & & \dots\dots & \\ a_{n1} & a_{n2} \dots a_{nn} & \vdots & b_{n1} & b_{n2} \dots b_{nn} \end{pmatrix}$$

Bu matritsadagi b_{ij} – $i,j=1,2,3,..,n$ elementlar boshlang'ich holatda birlik matritsa o'rnida bo'lib, A matritsani birlik matritsaga aylantirish bilan teskari matritsa elementlariga aylanadi.

$$\begin{pmatrix} 1 & 0 \dots 0 & a_{1,k+1}^{(k)} \dots a_{1n}^{(k)} & \vdots & b_{11}^{(k)} & b_{12}^{(k)} \dots b_{1n}^{(k)} \\ 0 & 1 \dots 0 & a_{2,k+1}^{(k)} \dots a_{2n}^{(k)} & \vdots & b_{21}^{(k)} & b_{22}^{(k)} \dots b_{2n}^{(k)} \\ \dots\dots & & & & \dots\dots & \\ 0 & 0 \dots 1 & a_{n,k+1}^{(k)} \dots a_{nn}^{(k)} & \vdots & b_{n1}^{(k)} & b_{n2}^{(k)} \dots b_{nn}^{(k)} \end{pmatrix} \Rightarrow \dots \Rightarrow$$

$$\begin{pmatrix} 1 & 0 \dots 0 & \vdots & b_{11}^{(n)} & b_{12}^{(n)} \dots b_{1n}^{(n)} \\ 0 & 1 \dots 0 & \vdots & b_{21}^{(n)} & b_{22}^{(n)} \dots b_{2n}^{(n)} \\ \dots\dots & & & \dots\dots & \\ 0 & 0 \dots 1 & \vdots & b_{n1}^{(n)} & b_{n2}^{(n)} \dots b_{nn}^{(n)} \end{pmatrix}$$

Bu almashtirish elementlari quyidagicha bog'lash mumkin:

$$a_{kj}^{(k)} = a_{kj}^{(k-1)} / a_{kk}^{(k-1)}, \qquad k=1,2,..,n; \; j=k+1,...,n$$

$$b_{kj}^{(k)} = b_{kj}^{(k-1)} / b_{kk}^{(k-1)}, \qquad k=1,2,..,n; \; j=1,2,...,n$$

$$a_{ij}^{(k)} = a_{ij}^{(k-1)} - a_{kj}^{(k-1)} a_{ik}^{(k-1)} / a_{kk}^{(k-1)},$$

$$i=1,...,k-1,\; k+1,...,n,\; j=k+1,...,n, a_{ik}^{(0)} = a_{ik}$$

$$b_{ij}^{(k)} = b_{ij}^{(k-1)} - b_{kj}^{(k-1)}\, a_{ik}^{(k-1)} / a_{kk}^{(k-1)}, \quad i = 1,...,k-1, \kappa+1,...,n;$$

$$j = \kappa+1,...,n, b_{ij}^{(0)} = b_{ij}$$

1.4–masaladagi matrisaga Jardano–Gauss usuli bilan teskari matritsni toping.

$$A = \begin{pmatrix} 4 & 3 & 1 \\ 2 & -1 & -1 \\ 7 & 1 & -3 \end{pmatrix}$$

Yechish. Teskari matritsa topish jarayonini matrits yonida ko'rsatib boramiz. Berilgan matritsaga teskari matritsani Jardano–Gauss usulida topish:

$$AE = \begin{pmatrix} 4 & 3 & 1 & 1 & 0 & 0 \\ 2 & -1 & -1 & 0 & 1 & 0 \\ 7 & 1 & -3 & 0 & 0 & 1 \end{pmatrix} \Rightarrow$$

Bu AE matritsaning satrlarini mosravishda [1], [2], [3] kabi belgilab, A matritsani birlik matritsaga, E matritsani A ning teskari matritsiga aylantirish uchun quyidagi amallarni **Jardano–Gauss usulida** bajaramiz.

$$\begin{matrix} [1]/4 \\ \\ \\ \end{matrix} \quad \begin{pmatrix} 1 & 3/4 & 1/4 & 1/4 & 0 & 0 \\ 2 & -1 & -1 & 0 & 1 & 0 \\ 7 & 1 & -3 & 0 & 0 & 1 \end{pmatrix} \Rightarrow$$

$$\begin{matrix} [1] \\ [2]-[1]*2 \\ [3]-[1]*7 \end{matrix} \quad \begin{pmatrix} 1 & 3/4 & 1/4 & 1/4 & 0 & 0 \\ 0 & -5/2 & -3/2 & -1/2 & 1 & 0 \\ 0 & -17/2 & -19/4 & -7/4 & 0 & 1 \end{pmatrix} \Rightarrow$$

$$\begin{matrix} [1] \\ [2]*(-2/5) \\ \\ \end{matrix} \quad \begin{pmatrix} & 3/4 & 1/4 & 1/4 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 3/5 & 1/5 & -2/5 & 0 \\ 0 & -17/2 & -19/4 & -7/4 & 0 & 1 \end{pmatrix} \Rightarrow$$

$$\begin{matrix} [1] \\ [2] \\ [3]+[2]*(17/4) \end{matrix} \quad \begin{pmatrix} 1 & 3/4 & 1/4 & 1/4 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 3/5 & 1/5 & -2/5 & 0 \\ 0 & 0 & -11/5 & -9/10 & -17/10 & 1 \end{pmatrix} \Rightarrow$$

[1]

[2]

[3]*(-5/11)

$$\begin{pmatrix} 1 & 3/4 & 1/4 & 1/4 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 3/5 & 1/5 & -2/5 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 9/22 & 17/22 & -5/11 \end{pmatrix} \Rightarrow$$

[1]+ [2]*(-3/4)
[2]
[3]

$$\begin{pmatrix} 1 & 0 & -1/5 & 1/10 & 3/10 & 0 \\ 0 & 1 & 3/5 & 1/5 & -2/5 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 9/22 & 17/22 & -5/11 \end{pmatrix} \Rightarrow$$

[1]+ [3]*(-1/5)
[2]+[3]*(-3/5)
[3]

$$\begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 & 2/11 & 5/11 & -1/11 \\ 0 & 1 & 0 & -1/22 & -19/22 & 3/11 \\ 0 & 0 & 1 & 9/22 & 17/22 & -5/11 \end{pmatrix}$$

$$A^{-1} = \begin{pmatrix} 2/11 & 5/11 & -1/11 \\ -1/22 & -19/22 & 3/11 \\ 9/22 & 17/22 & -5/11 \end{pmatrix}$$

Jardano–Gauss usulida matritsaga teskari matritsa topishning Maple dasturini tuzamiz.

1.3.2–M a p l e d a s t u r i:

1) *GAUSS usulida teskari matritsa topish:*

> restart; with(Student[LinearAlgebra]):

> A := <<4,2,7>|<3,–1,1>|<1,–1,–3>>;

$$A := \begin{bmatrix} 4 & 3 & 1 \\ 2 & -1 & -1 \\ 7 & 1 & -3 \end{bmatrix}$$

> A^(–1);

$$\begin{bmatrix} \frac{2}{11} & \frac{5}{11} & -\frac{1}{11} \\ -\frac{1}{22} & -\frac{19}{22} & \frac{3}{11} \\ \frac{9}{22} & \frac{17}{22} & -\frac{5}{11} \end{bmatrix}$$

2) *GAUSS usulida teskari matritsa topishni* **Tutor** *oynasida bajarish:*

> InverseTutor(A); (1.3– rasm)



1.3– rasm.

1.3.3. Chiziqli tenglamalar sistemasini teskari matritsa asosida yechish

1.5–masala. Quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini teskari matritsa yordamida yeching.

$$\begin{cases} 4x_1 + 3x_2 + x_3 = 1, \\ 2x_1 - x_2 - x_3 = 2, \\ 7x_1 + x_2 - 3x_3 = 3. \end{cases}$$

Tenglamalar sistemani matritsa ko'rinishida quyidagicha yozamiz:

$$A \cdot X = B \qquad (*)$$

(*) tenglamadagi noma'lum X matritani quyidagicha topamiz:

$$X = A^{-1} \cdot B$$

bu yerda: $$A^{-1} = \frac{1}{\Delta}\begin{pmatrix} A_{11} & A_{21} & A_{31} \\ A_{12} & A_{22} & A_{32} \\ A_{13} & A_{23} & A_{33} \end{pmatrix} \qquad (**)$$

Bu uchunchi tartibli A matritsaga teskari matritsa topish formulasi bo'lib, bunda Δ=det(A) – A matritsa determnanti, teskari matritsa A^{-1} dagi $A_{ij}(i,j=1,2,3)$ elementlar Δ determinantning a_{ij} elementiga mos keluvchi algebraik to'ldiruvchilari. Teskari matritsani topish uchun A matritsa detreminanti Δ ni tuzamiz va uning algebraik to'ldiruvchlarini topamiz.

Demak, $X = A^{-1} \cdot B$ dan sistema yechimi quyidagich topiladi:

$$x_1 = \frac{A_{11}b_1 + A_{21}b_2 + A_{31}b_3}{\Delta}, \quad x_2 = \frac{A_{12}b_1 + A_{22}b_2 + A_{32}b_3}{\Delta},$$

$$x_3 = \frac{A_{13}b_1 + A_{23}b_2 + A_{33}b_3}{\Delta}$$

Quyidagi Maple dasturida chiziqli tenglamalar sistemani teskari matritsa yordamida yechishning ikki xil usulini ko'rsatamiz:

1.3.3-M a p l e d a s t u r i:

Chiziqli tenglamalar sistemaning matritsalari:

> **restart; with(Student[LinearAlgebra]):**

> **A := <<4,2,7>|<3,–1,1>|<1,–1,–3>>;** $A := \begin{bmatrix} 4 & 3 & 1 \\ 2 & -1 & -1 \\ 7 & 1 & -3 \end{bmatrix}$

> **B:=<1,2,3>;** $B := \begin{bmatrix} 1 \\ 2 \\ 3 \end{bmatrix}$

1) teskari matritsani hisoblash formulasi yordamida yechish:

Berilgan matrisaning determinantini hisoblash.

> **d:=Determinant(A);**

(**) *teskari matrisaning elementlarini hisoblash:*

> **A11:=(–1)^(1+1)*Minor(A,1,1);** $A11 := 4$

> **A12:=(–1)^(1+2)*Minor(A,1,2);** $A12 := -1$

> **A13:=(–1)^(1+3)*Minor(A, 1, 3);** $A13 := 9$

> **A21:=(–1)^(2+1)*Minor(A, 2, 1);** $A21 := 10$

> **A22:=(–1)^(2+2)*Minor(A, 2, 2);** $A22 := -19$

> **A23:=(–1)^(2+3)*Minor(A, 2, 3);** $A23 := 17$

> **A31:=(–1)^(3+1)*Minor(A, 3, 1);** $A31 := -2$

> **A32:=(–1)^(3+2)*Minor(A, 3, 2);** $A32 := 6$

> **A33:=(–1)^(3+3)*Minor(A, 3, 3);** $A33 := -10$

> **x1:=(A11*B[1]+A21*B[2]+A31*B[3])/d;** $x1 := \frac{9}{11}$

> **x2:=(A12*B[1]+A22*B[2]+A32*B[3])/d;** $x2 := -\frac{21}{22}$

> **x3:=(A13*B[1]+A23*B[2]+A33*B[3])/d;** $x3 := \frac{13}{22}$

2) teskari matritsa topish buyrug'i **A^(–1)** asosida yechish:

> **A^(–1);** $\begin{bmatrix} \frac{2}{11} & \frac{5}{11} & -\frac{1}{11} \\ -\frac{1}{22} & -\frac{19}{22} & \frac{3}{11} \\ \frac{9}{22} & \frac{17}{22} & -\frac{5}{11} \end{bmatrix}$

> **X:=A^(–1).B;** $X := \begin{bmatrix} \frac{9}{11} \\ -\frac{21}{22} \\ \frac{13}{22} \end{bmatrix}$

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Chiziqli tenglama ta'rifini bering.
2. Qanday chiziqli tenglamalar sistemasi birgalikda deyiladi?
3. Chiziqli tenglamalar sistemasining tuzilishi va yozilishi qanday?
4. Sistema yechimining yagonaligi.
5. Aniq va taqribiy yechimlar farqini tushuntiring.
6. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning Gauss usuli nimalardan iborat?
7. Yetakchi element va yetakchi tenglamaning vazifasi.
8. Noma'lumlarni ketma-ket yo'qotishda yangi koeffitsientlarni aniqlash.
9. Gauss usulida chiziqli tenglamalar sistemasining yechimini topishda bajariladigan ko'paytirish, bo'lish va qo'shish amallari sonini aniqlash.
10. Chiziqli tenglamalar sistemasini Gauss usulida yechish.
11. Chiziqli tenglamalar sistemasining kengaytirilgan matritsasi nima?
12. 4. Kengaytirilgan matritsa uchun elementar almashtirishlar.

13. Chiziqli tenglamalar sistemasining kengaytirilgan matritsasiga Gauss usulini qo'llash bilan ekvivalent matritsalarga o'tish.
14. Chiziqli tenglamalar sistemasining kengaytirilgan matritsasiga Jordan–Gauss usulini qo'llash.
15. Gauss va Jordan–Gauss usullarining farqi.
16. Teskari matritsaga ta'rif bering.
17. Maxsus bo'lmagan matritsani tushuntiring.
18. Teskari matritsa elementlarini topish qoidasi.
19. Chiziqli tenglamalar sistemasini matritsa usulida yozish.
20. Qanday shartda teskari matritsani topish mumkin?
21. Algebraik to'ldiruvchini aniqlash.
22. Teskari matritsa elementlarini topish qoidasi.
23. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechishda teskari matritsa usuli.

1-laboratoriya ishl bo'yicha
mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1) Quyidagi chiziqli tenglamlar sistemasidan birinchisini Gauss va ikkinchisini Kramer usulida yeching undagi determinatlarni Gauss usulida hisoblang;

2) Matritsaviy tenglamani teskari matritsa topish usulida yeching.

1. 1) $\begin{cases} x_1 + x_2 + 2x_3 + 3x_4 = 1 \\ 3x_1 - x_2 - x_3 - 2x_4 = -4 \\ x_1 + 2x_2 + 3x_3 - x_4 = -4 \\ x_1 + x_2 + x_3 - x_4 = 6 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 5x + 8y - z = -7 \\ x + 2y + 3z = 1 \\ 2x - 3y + 2z = 9 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ -1 & 2 & 4 \\ 5 & 3 & 0 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 2 & 7 & 13 \\ -1 & 0 & 5 \\ 5 & 13 & 21 \end{pmatrix}$

2. 1) $\begin{cases} x_1 + 2x_2 + 3x_3 - 2x_4 = 6 \\ x_1 - x_2 - 2x_3 - 3x_4 = 8 \\ 2x_1 + 2x_2 - x_3 + 2x_4 = 4 \\ 2x_1 - 3x_2 + 2x_3 + x_4 = -8 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x + 2y + z = 4 \\ 3x - 5y + 3z = 1 \\ 2x + 7y - z = 8 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} -1 & -2 & 3 \\ 2 & 3 & 5 \\ 1 & 4 & -1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 4 & 11 & 3 \\ 1 & 6 & 1 \\ 2 & 2 & 16 \end{pmatrix}$

3. 1) $\begin{cases} x_1 + 2x_2 + 3x_3 - 4x_4 = 5 \\ 2x_1 + x_2 + 2x_3 + 3x_4 = 1 \\ 3x_1 + 2x_2 + x_3 + 2x_4 = 1 \\ 4x_1 + 3x_2 + 2x_3 + x_4 = -5 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 3x + 2y + z = 5 \\ 2x + 3y + z = 1 \\ 2x + y + 3z = 11 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 4 & -2 & 0 \\ 1 & 1 & 2 \\ 3 & -2 & 0 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 0 & -2 & 6 \\ 2 & 4 & 3 \\ 0 & -3 & 4 \end{pmatrix}$

4. 1) $\begin{cases} x_1 - 3x_3 + 4x_4 = -5 \\ x_1 - 2x_3 + 3x_4 = -4 \\ 3x_1 + 2x_2 - 5x_4 = 12 \\ 4x_1 + 3x_2 - 5x_3 = 5 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x_1 + 2x_2 + 4x_3 = 31 \\ 5x_1 + x_2 + 2x_3 = 29 \\ 3x_1 - x_2 + x_3 = 10 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 2 & 1 & 3 \\ 1 & -2 & 0 \\ 4 & -3 & 0 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 22 & -14 & 3 \\ 6 & -7 & 0 \\ 11 & 3 & 15 \end{pmatrix}$

5. 1) $\begin{cases} x_1 + 3x_2 + 5x_3 - 7x_4 = 12 \\ 3x_1 + 5x_2 + 7x_3 + x_4 = 0 \\ 5x_1 + 7x_2 + x_3 + 3x_4 = 4 \\ 7x_1 + x_2 + 3x_3 + 5x_4 = 16 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 4x - 3y + 2z = 9 \\ 2x + 5y - 3z = 4 \\ 5x + 6y - 2z = 18 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ 4 & -1 & 0 \\ 0 & 1 & 2 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 9 & 8 & 7 \\ 2 & 7 & 3 \\ 4 & 3 & 5 \end{pmatrix}$

6. 1) $\begin{cases} x_1 + 5x_2 + 3x_3 - 4x_4 = 20 \\ 3x_1 + x_2 - 2x_3 = 9 \\ 5x_1 - 7x_2 + 10x_4 = -9 \\ 3x_2 - 5x_3 = 1 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 2x_1 - x_2 - x_3 = 4 \\ 3x_1 + 4x_2 - 2x_3 = 11 \\ 3x_1 - 2x_2 + 4x_3 = 11 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 5 & 1 & 2 \\ -1 & 2 & 0 \\ 1 & 0 & 1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 8 & 1 & 5 \\ -2 & 2 & -1 \\ 17 & 1 & 7 \end{pmatrix}$

7. 1) $\begin{cases} 2x_1 + x_2 - 5x_3 + x_4 = 8 \\ x_1 - 3x_2 - 6x_4 = 9 \\ 2x_2 - x_3 + 2x_4 = -5 \\ x_1 + 4x_2 - 7x_3 + 6x_4 = 0 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x_1 + x_2 + 2x_3 = -1 \\ 2x_1 - x_2 + 2x_3 = -4 \\ 4x_1 + x_2 + 4x_3 = -2 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 4 & 2 & 1 \\ 3 & -2 & 0 \\ 0 & -1 & 2 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 2 & 0 & 2 \\ 5 & -7 & -2 \\ 1 & 0 & -1 \end{pmatrix}$

8. 1) $\begin{cases} 2x_1 - x_2 + 3x_3 + 2x_4 = 4 \\ 3x_1 + 3x_2 + 3x_3 + 2x_4 = 6 \\ 3x_1 - x_2 - x_3 + 2x_4 = 6 \\ 3x_1 - x_2 + 3x_3 - x_4 = 6 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 3x_1 - x_2 = 5 \\ -2x_1 + x_2 + x_3 = 0 \\ 2x_1 - x_2 + 4x_3 = 15 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 1 & 4 & 2 \\ 2 & 1 & -2 \\ 0 & 1 & -1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 4 & 6 & -2 \\ 4 & 10 & 1 \\ 2 & 4 & -5 \end{pmatrix}$

9. 1) $\begin{cases} x_1 + 2x_2 - x_3 + x_4 = 8 \\ 2x_1 + x_2 + x_3 + x_4 = 5 \\ x_1 - x_2 + 2x_3 + x_4 = -1 \\ x_1 + x_2 - x_3 + 3x_4 = 10 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 3x_1 - x_2 + x_3 = 4 \\ 2x_1 - 5x_2 - 3x_3 = -17 \\ x_1 + x_2 - x_3 = 0 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 3 & 2 & -5 \\ 4 & 2 & 0 \\ 1 & 1 & 2 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} -1 & 2 & 4 \\ 0 & 3 & 2 \\ -1 & -3 & 4 \end{pmatrix}$

10. 1) $\begin{cases} 4x_1 + x_2 - x_4 = -9 \\ x_1 - 3x_2 + 4x_3 = -7 \\ 3x_2 - 2x_3 + 4x_4 = 12 \\ x_1 + 2x_2 - x_3 - 3x_4 = 0 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x_1 + x_2 + x_3 = 2 \\ 2x_1 - x_2 - 6x_3 = -1 \\ 3x_1 - 2x_2 = 8 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 5 & 3 & -1 \\ -2 & 0 & 4 \\ 3 & 5 & -1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 1 & 4 & 16 \\ -3 & -2 & 0 \\ 5 & 7 & 2 \end{pmatrix}$

11. 1) $\begin{cases} 2x_1 - x_2 + x_3 - x_4 = 1 \\ 2x_1 - x_2 - 3x_4 = 2 \\ 3x_1 - x_3 + x_4 = -3 \\ 2x_1 + 2x_2 - 2x_3 + 5x_4 = -6 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 2x_1 + x_2 - x_3 = 1 \\ x_1 + x_2 + x_3 = 6 \\ 3x_1 - x_2 + x_3 = 4 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 5 & -1 & 3 \\ 0 & 2 & -1 \\ -2 & -1 & 0 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 3 & 7 & -2 \\ 1 & 1 & -2 \\ 0 & 1 & 3 \end{pmatrix}$

12. 1) $\begin{cases} x_1 + x_2 - x_3 - x_4 = 0 \\ x_2 + 2x_3 - x_4 = 2 \\ x_1 - x_2 - x_4 = -1 \\ -x_1 + 3x_2 - 2x_3 = 0 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 2x_1 - x_2 - 3x_3 = 3 \\ 3x_1 + 4x_2 - 5x_3 = 8 \\ 2x_2 + 7x_3 = 17 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 4 & 5 & -2 \\ 3 & -1 & 0 \\ 4 & 2 & 7 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 2 & 1 & -1 \\ 0 & 1 & 3 \\ 5 & 7 & 3 \end{pmatrix}$

13. 1) $\begin{cases} 5x_1 + x_2 - x_4 = -9 \\ 3x_1 - 3x_2 + x_3 + 4x_4 = -7 \\ 3x_1 - 2x_3 + x_4 = -16 \\ x_1 - 4x_2 + x_4 = 0 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x_1 + 5x_2 + x_3 = -7 \\ 2x_1 - x_2 - x_3 = 0 \\ x_1 - 2x_2 - x_3 = 2 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 2 & -8 & 5 \\ -1 & 1 & 1 \\ -2 & -2 & -3 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 10 & -2 & 6 \\ 0 & 4 & -2 \\ -4 & -2 & 0 \end{pmatrix}$

14. 1) $\begin{cases} 2x_1 + x_3 + 4x_4 = 9 \\ x_1 + 2x_2 - x_3 + x_4 = 8 \\ 2x_1 + x_2 + x_3 + x_4 = 5 \\ x_1 - x_2 + 2x_3 + x_4 = -1 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x - 2y + 3z = 6 \\ 2x + 3y - 4z = 16 \\ 3x - 2y - 5z = 12 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 5 & 3 & -1 \\ 2 & 0 & 4 \\ 3 & 5 & -1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 1 & 4 & 16 \\ -3 & -2 & 0 \\ 5 & 7 & 2 \end{pmatrix}$

15. 1) $\begin{cases} 2x_1 - 6x_2 + 2x_3 + 2x_4 = 12 \\ x_1 + 3x_2 + 5x_3 + 7x_4 = 12 \\ 3x_1 + 5x_2 + 7x_3 + x_4 = 0 \\ 5x_1 + 7x_2 + x_3 + 3x_4 = 4 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 3x + 4y + 2z = 8 \\ 2x - y - 3z = -1 \\ x + 5y + z = 0 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 2 & 3 & -1 \\ 4 & 5 & 2 \\ -1 & 0 & 7 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} -1 & 0 & 5 \\ 2 & 1 & 3 \\ 0 & -2 & 4 \end{pmatrix}$

16. 1) $\begin{cases} x_1 + 5x_2 = 2 \\ 2x_1 - x_2 + 3x_3 + 2x_4 = 4 \\ 3x_1 - x_2 - x_3 + 2x_4 = 6 \\ 3x_1 - x_2 + 3x_3 - x_4 = 6 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 2x_1 - x_2 + 3x_3 = 7 \\ x_1 + 3x_2 - 2x_3 = 0 \\ 2x_2 - x_3 = 2 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 12 & 15 & -6 \\ 0 & -3 & 0 \\ 12 & 0 & 21 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 8 & 7 & -4 \\ 3 & 1 & 6 \\ 16 & 16 & 13 \end{pmatrix}$

17. 1) $\begin{cases} x_1 - 4x_2 - x_4 = 2 \\ x_1 + x_2 + 2x_3 + 3x_4 = 1 \\ 2x_1 + 3x_2 - x_3 - x_4 = -6 \\ x_1 + 2x_2 + 3x_3 - x_4 = -4 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 2x_1 + x_2 + 4x_3 = 20 \\ 2x_1 - x_2 - 3x_3 = 3 \\ 3x_1 + 4x_2 - 5x_3 = -8 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 1 & 3 & 4 \\ 6 & 6 & 5 \\ -1 & -2 & 11 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 4 & -3 & 11 \\ 0 & -3 & 4 \\ 1 & -4 & 1 \end{pmatrix}$

18. 1) $\begin{cases} 5x_1 - x_2 + x_3 + 3x_4 = -4 \\ x_1 + 2x_2 + 3x_3 - 2x_4 = 6 \\ 2x_1 - x_2 - 2x_3 - 3x_4 = 8 \\ 3x_1 + 2x_2 - x_3 + 2x_4 = 4 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x_1 - x_2 = 4 \\ 2x_1 + 3x_2 + x_3 = 1 \\ 2x_1 + x_2 + 3x_3 = 11 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 8 & -5 & -1 \\ -4 & 7 & -1 \\ -4 & 1 & 5 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 5 & 4 & -1 \\ 10 & 12 & -3 \\ 0 & 1 & 1 \end{pmatrix}$

19. 1) $\begin{cases} 4x_1 - 2x_2 + x_3 - 4x_4 = 3 \\ 2x_1 - x_2 + x_3 - x_4 = 1 \\ 3x_1 - x_3 + x_4 = -3 \\ 2x_1 + 2x_2 - 2x_3 + 5x_4 = -6 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x_1 + 5x_2 - x_3 = 7 \\ 2x_1 - x_2 - x_3 = 4 \\ 3x_1 - 2x_2 + 4x_3 = 11 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 3 & 2 & -5 \\ 4 & 2 & 0 \\ 1 & 1 & 2 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} -1 & 2 & 4 \\ 0 & 3 & 2 \\ -1 & -3 & 4 \end{pmatrix}$

20. 1) $\begin{cases} 2x_1 - x_3 - 2x_4 = -1 \\ x_2 + 2x_3 - x_4 = 2 \\ x_1 - x_2 - x_4 = -1 \\ -x_1 + 3x_2 - 2x_3 = 0 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 11x + 3y - z = 2 \\ 2x + 5y - 5z = 0 \\ x + y + z = 2 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 1 & 2 & 1 \\ 3 & -5 & 3 \\ 2 & 7 & -1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 4 & 2 & 1 \\ 1 & -5 & 3 \\ 8 & 7 & -1 \end{pmatrix}$

21. 1) $\begin{cases} -x_1 + x_2 + x_3 + x_4 = 4 \\ 2x_1 + x_2 + 2x_3 + 3x_4 = 1 \\ 3x_1 + 2x_2 + x_3 + 2x_4 = 1 \\ 4x_1 + 3x_2 + 2x_3 + x_4 = -5 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 7x + 5y + 2z = 18 \\ x - y - z = 3 \\ x + y + 2z = -2 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} -1 & 2 & 0 \\ -3 & 2 & 1 \\ 1 & 2 & 3 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 5 & -1 & 3 \\ 4 & 2 & 1 \\ -1 & 0 & 2 \end{pmatrix}$

22. 1) $\begin{cases} 5x_1 + 3x_2 - 7x_3 + 3x_4 = 1 \\ x_2 - 3x_3 + 4x_4 = -5 \\ x_1 - 2x_3 - 3x_4 = -4 \\ 4x_1 + 3x_2 - 5x_3 = 5 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 2x + 3y + z = 1 \\ x + z = 0 \\ x - y - z = 2 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 1 & 1 & -1 \\ 4 & -3 & 1 \\ 0 & 2 & 1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 7 & 0 & -5 \\ 4 & 11 & 2 \\ 1 & 3 & 1 \end{pmatrix}$

23. 1) $\begin{cases} x_1 + x_2 - x_3 - x_4 = 0 \\ x_1 + 2x_2 - 2x_4 = 1 \\ x_1 - x_2 - x_4 = -1 \\ -x_1 + 3x_2 - 2x_3 = 0 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x - 2y - 2z = 3 \\ x + y - 2z = 0 \\ x - y - z = 1 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ 1 & 0 & 1 \\ 1 & 1 & -1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 7 & 5 & 2 \\ 1 & -1 & -1 \\ 1 & 1 & 2 \end{pmatrix}$

24. 1) $\begin{cases} 2x_1 + x_2 - x_3 + 3x_4 = -6 \\ 3x_1 - x_2 + x_3 + 5x_4 = 3 \\ x_1 + 2x_2 - x_3 + 2x_4 = 28 \\ 2x_1 + 3x_2 + x_3 - x_4 = 0 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 3x_1 + x_2 - 5x_3 = -7 \\ 2x_1 - 3x_2 + 4x_3 = -1 \\ 5x_1 - x_2 + 3x_3 = 0 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ 3 & -1 & 0 \\ 1 & 2 & -1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 1 & 5 & 0 \\ 3 & 1 & 2 \\ 0 & 2 & 1 \end{pmatrix}$

25. 1) $\begin{cases} 2x_1 - x_2 + 2x_3 + 2x_4 = -3 \\ 3x_1 + 2x_2 + x_3 - x_4 = 3 \\ x_1 - 3x_2 - x_3 - 3x_4 = 0 \\ 4x_1 + 2x_2 + 2x_3 + 5x_4 = -15 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x_1 - x_2 - 5x_3 = -7 \\ 2x_1 - 3x_2 + 4x_3 = -1 \\ 5x_1 - x_2 + 3x_3 = 0 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} -2 & 1 & 2 \\ 3 & 0 & 4 \\ 2 & 1 & -1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 2 \\ 2 & 1 & 1 \\ -1 & 0 & 1 \end{pmatrix}$

26. 1) $\begin{cases} x_1 + 3x_2 - x_3 - 4x_4 = 6 \\ x_1 + 2x_2 - 3x_4 = 3 \\ 2x_1 - x_2 - x_4 = -1 \\ x_1 + 3x_2 - 2x_3 = 5 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x - y - 2z = 3 \\ x + 2y - 3z = 4 \\ x - 5y - z = -1 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 2 & 3 & 1 \\ 1 & 4 & 1 \\ 1 & 1 & -1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 7 & -5 & 2 \\ 1 & 2 & -1 \\ 1 & 1 & 2 \end{pmatrix}$

27. 1) $\begin{cases} 2x_1 + x_2 - 3x_3 + 3x_4 = 7 \\ 3x_1 - x_2 + 2x_3 + 5x_4 = 9 \\ x_1 + 2x_2 - x_3 + 2x_4 = 8 \\ 2x_1 + 3x_2 + x_3 - x_4 = 5 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} 3x_1 + x_2 - x_3 = -7 \\ 2x_1 - 4x_2 + x_3 = -1 \\ 5x_1 - 2x_2 + 3x_3 = 2 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 5 & 3 & 2 \\ 3 & -1 & 1 \\ 2 & 2 & -1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 1 & 5 & 2 \\ 3 & 1 & 2 \\ 0 & 2 & 1 \end{pmatrix}$

28. 1) $\begin{cases} 2x_1 - 3x_2 + 2x_3 + 5x_4 = 7 \\ 3x_1 + 2x_2 + x_3 - 4x_4 = 3 \\ x_1 - 3x_2 - x_3 - 3x_4 = 5 \\ 4x_1 + 2x_2 + 2x_3 + 5x_4 = 8 \end{cases}$ 2) $\begin{cases} x_1 - x_2 - 6x_3 = -7 \\ 2x_1 - 3x_2 - 4x_3 = -2 \\ 5x_1 - x_2 + 3x_3 = 2 \end{cases}$

3) $\begin{pmatrix} 4 & 1 & 2 \\ 3 & 5 & 4 \\ 2 & 1 & -1 \end{pmatrix} X = \begin{pmatrix} 3 & 1 & 2 \\ 2 & 4 & 1 \\ -1 & 0 & 1 \end{pmatrix}$

2-LABORATORIYA ISHI

Ciziqsiz tenglamalarini yechish.
Transendent va algebraik tenglamalarini taqribiy yechish
Maple dasturining buyruqlari:

with(plots)– *funksiyalarning grafiklarini qurish paketidagi amallar;*

implicitplot(y=f(x),x=a..b) –*tekislikda oshkormas funksiyaning grafigini qurish;*

implicitplot3d(u=f(x,y,z),x=a..b,y=c..d,z=m..n)–*fazoda oshkormas funksiyaning grafigini qurish;*

solve(f(x),x) – *tenglamani x ga nisbatan ildizlarini hisoblash,*

coeffs(p,x)– **p** *ko'phadning koeffisentlarini aniqlash;*

max(coeffs(p,x) – *ko'phadning koeffisentlarining eng kattasini aniqlash;* **min(coeffs(p,x)** – *ko'phadning koeffisentlarining eng kichigini aniqlash;*

realroot(p,1)– *ko'phadning ildizlari yotgan 1 birlik kenglikdagi oralıqlarni aniqlash;*

with(Student[Calculus1]):NewtonsMethod(f(x),x=–1)– *Nyuton (urinmalar) usulida f(x) =0 tenglamaning x =–1 dan o'ngdagi ildizini aniqlash;*

> **fsolve({f,g},{x=–2..–1,y=–1..1})**– *tenglamalar sistemasining ko'rsatilgan sohalardagi yechimni hisoblash:*

with(Student[MultivariateCalculus]):Jacobian([u(x,y,z),v(x,y,z),w(x,y,z)],[x,y,z])– *Yakobiyanni hisoblash;*

Maqsad: Ciziqsiz bo'lgan murakkab transtsendent tenglama va ko'phadning ildizi yotgan oraliqni aniqlash usullarini o'rganish.

Reja:

2.1. Tenglama ildizini ajratish.
2.2. Transendent tenglama ildizini ajratish.
2.3. Algebraik tenglama ildizlari yotgan oraliqlarni aniqlash.
2.4. Tenglama ildizini urinmalar (Nyuton) usulida hisoblash.

> **matrixplot(UN,heights=histogram,axes=boxed);** (7.18–rasm)

> **matrixplot(UN,axes=boxed);** (7.19–rasm)



7.18–rasm.



7.19–rasm.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Berilgan sohani to'r bilan qoplash, to'r tugunlarining turlari, tugun nuqtalarni aniqlash.
2. Xususiy hosilalarni chekli ayirmalar nisbati bilan almashtirishlar asosida to'r usuli moxiyatini tushuntiring.
3. Laplas yoki 'uasson tenglamasi uchun Dirixle masalasining taqribiy yechimi to'r usuli yordamida qanday topiladi?
4. Taqribiy yechim xatoligini baxolash formulasini yozing.
5. Bir jinsli issiklik utkazuvchanlik tenglamasi uchun aralash masalani tur usuli yordamida taqribiy yechimi qanday topiladi?

6. Taqribiy yechim kaysi formulalar yordamida baxolanadi?
7. Bir jinsli bulmagan issiklik tarkalish tenglamasi va unga mos chekli ayirmali tenglamani xamda xatolikni baxolash formulalarini yozing.
8. Issiklik tarkalish tenglamasi uchun aralash masalani va unga mos chekli ayirmali sistemani yozing.

7.3-laboratoriya ishi
bo'yicha mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

To'r usulida $\frac{\partial^2 u}{\partial t^2}=\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}$ giperbolik tenglama yechimi $u(x,t)$ ning qiymatlarini,

$$u(x,0)=f(x),\ u'_t(x,0)=\Phi(x),\ (0\le x\le 1)$$

boshlang'ich va

$$u(0,t)=\varphi(t),\ u(s,t)=\psi(t),\ 0\le t\le 0.5$$

chegaraviy shartlari asosida $h=0.1$, $l=0.01$ qadamlar bilan hisoblang.

№	f (x)	Φ(x)	φ(t)	ψ(t)
1	$x(x+1)$	$\cos x$	0	$2(t+1)$
2	$x\cos\pi x$	$x(2-x)$	$2t$	-1
3	$\cos(\pi x/2)$	x^2	$1+2t$	0
4	$x(x+0,5)$	$\sin(x+0,2)$	$t-0.5$	$3t$
5	$2x(x+1)+0,3$	$2\sin x$	0,3	$4,3+t$
6	$(x+0,2)\sin(\pi x/2)$	$1+x^2$	0	$1,2(t+1)$
7	$x\sin\pi x$	$(x+1)^2$	$2t$	0
8	$3(1-x)x$	$\cos(x+0,5)$	$2t$	0
9	$x(2x-0,5)$	$\cos 2x$	t^2	1,5
10	$(x+1)\sin\pi x$	x^2+x	0	0,5
11	$(1-x)\cos(\pi x/2)$	$2x+1$	$2t+1$	0
12	$0,5x(x-1)$	$x\cos x$	$2t^2$	1
13	$0,5(x^2+1)$	$x\sin 2x$	$0,5+3t$	1
14	$(x+1)\sin(\pi x/2)$	$1-x^2$	$0,5t$	2
15	$x^2\cos\pi x$	$x^2(x+1)$	$0,5t$	$t-1$
16	$(1-x^2)\cos\pi x$	$2x+0,6$	$1+0,4t$	0
17	$(x+0,5)^2$	$(x+1)\sin x$	$0,5(0,5+t)$	2,25
18	$1,2x-x^2$	$(0,5+x)\sin x$	0	$0,2+0,5t$
19	$(0,6+x)x$	$\cos(x+0,3)$	0,5	$3-2t$
20	$0,5(x+1)^2$	$(0,5+x)\cos\pi x$	0,5	$2-3t$
21	$(x+0,4)\sin\pi x$	$(x+1)^2$	$0,5t$	0
22	$(2-x)\sin\pi x$	$(0,6+x)^2$	$0,5t$	0

23	$x\cos(\pi x/2)$	$2x^2$	0	t^2
24	$(0{,}4+x)\cos(\pi x/2)$	$0{,}3(x^2+1)$	0,4	$1{,}2t$
25	$1-x^2+x$	$2\sin(x+0{,}4)$	1	$(t+1)^2$
26	$0{,}4(x+0{,}6)^2$	$x\sin(x+0{,}6)$	$0{,}5+5t$	0,9
27	$(x^2+0{,}5)\cos\pi x$	$(0{,}7+x^2)$	0,5	$2t-1{,}5$
28	$(x+2)(0{,}5x+1)$	$2\cos(x+\pi/6)$	2	$4{,}5-3t$
29	$(x^2+1)(1-x)$	$1-\sin x$	1	$0{,}5t$
30	$(0{,}2+x)\sin(\pi x/2)$	$1+x^2$	$0{,}6t$	1,2

8-LABORATORIYA

Kuzatilgan tajriba ma'lumotlariga asoslanib korrelyasion jadvalni tuzish

Maple dasturining buyruqlari:

> **with(stats[statplots])**– statistika amallarini nchaqirish;

> **transform[statsort](X)**– *X* vektor qiymatlarini saralash;

> **describe[count](X)**– *X* vektor qiymatlari sonini sanash;

> **max(X)**– *X* vektor qiymatlarining eng kattasini aniqlash;

> **transform[tallyinto](X,[90..94,94..98,98..102, 102..106])**– *X ning intervallardagi qiymatlari soni–chastotasini aniqlash:*

> **transform[classmark](X)**– *Intervallardagi X ning qiymatlar soni–chastotasini va o'rta qiymatlarini aniqlash:*

> **transform[statvalue](X)**– *X ning o'rta qiymatlarini aniqlash:*

> **transform[frequency](X)**– *X ning qiymatlar soni–chastotasini aniqlash:*

Maqsad: Korrelyatsion bog'lanishni va kuzatilgan tajriba ma'lumotlariga asoslanib korrelyasion jadvalni tuzishni o'rganish.

Reja:

8.1. Korrelyatsion bog'lanish haqida

8.2. Tanlanmaning korrelyasion jadvalni tuzish.

8.3. Ko'paytmalar usuli yordamida korrelyasiya koeffisientini hisoblash.

8.4. *Y* ning *X* ga regressiya to'g'ri chizig'ining tanlanma tenglamasini yozish.

8.5. Tanlanma korrelyasion nisbatini hisoblash.

8.1. Korrelyatsion bog'lanish haqida

Biror y miqdorning faktorga nisbatan bog'liqligini umumiy holda

$$y=f(x) \qquad (8.1)$$

ko'rinishda ifodalash mumkin. Bunday bog'lanish funksional yoki stoxastik holda uchrashi mumkin.

Agar x faktorning har bir qiymatida y miqdorning aniq bir qiymati topilgan bo'lsa, bunday bog'lanish funksional bog'lanish deyiladi.

Korrelyatsiya so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, u "munosabat" yoki "o'zaro aloqa" degan ma'noni anglatadi. Yuqoridagi (8.1) bog'lanish korrelyatsion bog'lanish deyiladi, bu tenglama "x" miqdorga ko'ra "y" ning regressiya tenglamasi ham deyiladi.

Statistik bog'lanish deb shunday bog'lanishga aytiladiki, unda miqdorlardan birining o'zgarishi ikkinchisining taqsimoti o'zgarishga olib keladi. Xususan, statistik bog'liqlik miqdorlaridan birining o'zgarishi ikkinchisining o‘rtacha qiymatini o‘zgarishida ko‘riladi. Bu holda statistik bog‘lanish korrelyatsion bog‘lanish deb aytiladi.

Korrelyatsion bog‘liqlik ta’sirini aniqlashtiramiz. Buning uchun shartli o‘rtacha qiymati tushunchasini kiritamiz.

Aytaylik, y va x tasodifiy miqdorlar orasidagi bog‘lanish o‘rganilayotgan bo‘lsin. x ning har bir qiymatiga y ning bir nechta qiymati mos kelsin.

Masalan, $x_1=2$ da, y miqdor $y_1=5$, $y_2=6$, $y_3=10$ qiymatlar olgan bo‘lsin.

Bu sonlarning arifmetik o‘rtacha qiymatini topamiz:

$$\bar{y}_2 = \frac{5+6+10}{3} = 7 \qquad (8.2)$$

son *shartli o‘rtacha* qiymat deyiladi. y harfi ustidagi chiziqga arifmetik o‘rtacha qiymat belgisi bo‘lib xizmat qiladi. 2 soni esa y ning $x_1=2$ ga mos qiymatlari qaralayotganini ko‘rsatadi. Yuqoridagi misolga nisbatan olganda, bu maolumotlarni quyidagicha tahmin qilish mumkin. Uchta bir xil uchastkaning har biriga y birlikdan o‘g‘it solindi va mos ravishda 5, 6 va 10 birlikdan paxta hosili olindi; o‘rtacha hosil 7 birlik bo‘ladi.

Shartli o‘rtacha qiymat deb uning $x=x_0$ qiymatga mos qiymatlarning *arifmetik o‘rtacha* qiymatiga aytiladi.

Agar har bir x qiymatga shartli o‘rtacha qiymatning bitta qiymati mos kelsa, u holda, ravshanki shartli o‘rtacha qiymat x ning funksiyasidir. Bu holda y tasodifiy miqdor x miqdorga *korrelyatsion bog‘liq* deyiladi.

Korrelyatsiya nazariyasining **birinchi masalasi** –korrelyatsion bog‘lanish formasini aniqlash, ya’ni regressiya funksiyasining ko‘rinishini topishdir.

Regressiya funksiyalari ko‘p hollarda chiziqli bo‘ladi.

Korrelyatsiya nazariyasining **ikkinchi masalasi** –korrelyatsion bog‘lanishning zichligini aniqlashdir.

y ning x ga korrelyatsion bog‘liqlikning zichligi y ning qiymatlarini shartli o‘rtacha qiymat atrofida tarqoqligining kattaligi bo‘yicha baholanadi.

Ko‘p tarqoqlik y ning x ga kuchsiz bog‘liqligidan yoki bog‘liqlik yo‘qligidan darak beradi. Kam tarqoqlik ancha kuchli bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi; bu holda y va x xatto funksional bog‘langan bo‘lib, lekin ikkinchi darajali tasodifiy faktorlar ta’sirida bu bog‘lanish kuchsizlangan, buning natijasida esa x ning bitta qiymatida y turli qiymatlar qabul qilishi mumkin.

8.2. Tanlanmaning korrelyasion jadvalni tuzish

Quyidagi jadvalda ma’lum bir shahardagi 20 ta erkakning ko‘krak aylanasi uzunligi X (sm.da) va bo‘yi Y (sm.da) berilgan.

1 – j a d v a l

X	91	95	97	99	92	96	100	100	97	101
Y	160	169	162	168	164	164	165	169	159	170
X	97	95	102	98	101	99	103	104	104	103
Y	171	185	171	166	172	175	170	181	176	175

1. Korrelyasion jadvalni tuzamiz. Buning uchun X va Y belgilarning umumiy o'zgarish intervallarini topamiz:

$R_1 = x_{max} - x_{min} = 104 - 91 = 13;$

$R_2 = y_{max} - y_{min} = 181 - 159 = 22;$

Eng katta qiymatlarni biroz o'ngga va eng kichik qiymatlarni biroz chapga surib, o'zgarish intervallarini qulay holga keltirib olish mumkin.

Masalan,

$x_{max} = 106, x_{min} = 90, y_{max} = 185, y_{min} = 155$

kabi tanlasak

$R_1 = 16; R_2 = 30$

bo'ladi.

Bu holda intervallar sonini $k_1 = 4$; $k_2 = 5$ deb olib, X va Y belgilar qismiy intervallarining uzunliklarini topamiz:

$$h_1 = \Delta x = R_1 / k_1 = 16/4 = 4, \quad h_2 = \Delta y = R_2 / k_2 = 30/5 = 6.$$

Korrelyasiya jadvalini quyidagicha tuzamiz:

1 – qatorga uzunligi $h_1 = 4$ bo'lgan X ning qismiy intervallarini;

2 – qatorga bu intervallarning o'rtalari x_i larni yozamiz.

1 – ustunga uzunligi $h_2 = 6$ bo'lgan Y ning qismiy intervallarini;

2 – ustunga bu intervallarning o'rtalari y_i larni topib yozamiz.

X ning qismiy intervallari va Y ning qismiy intervallari kesishgan qismga

tushuvchi $(x_i;y_j)$ qiymatlarni sanab, (Bunda intervallarning chegaralariga to'g'ri kelgan

qiymatlarni faqat oldingi intervallarga tushadi deb sanaymiz).

2 – j a d v a l

Y \ X	$h_1 = 4$	90 – 94	94 – 98	98 – 102	102 – 106	
$h_2 = 6$	Y \ X	$X_1 = 92$	$X_2 = 96$	$X_3 = 100$	$X_4 = 104$	n_y
155 – 161	$Y_1 = 158$	1	1			2
161 – 167	$Y_2 = 164$	1	4	1		6
167 – 173	$Y_3 = 170$		2	5	1	8
173 – 179	$Y_4 = 176$			1	2	3
179 – 185	$Y_5 = 182$				1	1
	n_x	2	7	7	4	$n = 20$

Qatorlar bo'yicha chastotalarni jamlab, n_y larni topamiz va oxirgi ustunga yozamiz.

Ustunlar bo'yicha chastotalarni jamlab, n_x larni topamiz va oxirgi qatorga yozamiz.

n_x larning yig'indisi ham , n_y larning yig'indisi ham tanlanma hajmi n=20 ga teng bo'ladi.

8.1.1–M a p l e d a s t u r i:

```
> restart;with(stats[statplots]): Digits:=3:
> X:=[91,95,97,99,92,96,100,100,97,101,97,95,102,96, 101,90,
103,104,104,103];
```

$X := [91, 95, 97, 99, 92, 96, 100, 100, 97, 101, 97, 95, 102, 96, 101, 90, 103, 104, 104, 103]$

```
> Y:=[160,169,162,168,164,164,165,169,159,170,171, 165, 171,
166,172, 175,170,181,176,175];
```

$Y := [160, 169, 162, 168, 164, 164, 165. 169, 159, 170, 171, 165, 171, 166, 172, 175, 170, 181, 176, 175]$

Saralash :

```
> X:=transform[statsort](X);
```

$X := [90, 91, 92, 95, 95, 96, 96, 97, 97, 97, 99, 100, 100, 101, 101, 102, 103, 103, 104, 104]$

```
> Y:=transform[statsort](Y);
```

$Y := [159, 160, 162, 164, 164, 165, 165, 166, 168, 169, 169, 170, 170, 171, 171, 172, 175, 175, 176, 181]$

Tanlanma hajmi :

```
> N1:=describe[count](X);
```
$N1 := 20$

```
> N2:=describe[count](Y);
```
$N2 := 20$

Intervallar soni :

```
> k1:=1+3.2*log[10](20);k1:=evalf(%,2);
```

$$k1 := 1 + \frac{3.2\ln(20)}{\ln(10)} \quad k1 := 5.2$$

```
> k2:=1+3.2*log[10](20);k2:=evalf(%,2);
```

$$k2 := 1 + \frac{3.2\ln(20)}{\ln(10)} \quad k2 := 5.2$$

Tuzatilgan intervallar sonini:

> **k1:=4;** $k1 := 4$

> **k2:=5;** $k2 := 5$

Eng katta va eng kichik qiymatni aniqlash :

> **Xmax:=max(90,91,92,95,95,96,96,97,97,97,99,100, 100, 101, 101, 102, 103, 103, 104, 104);**

$$Xmax := 104$$

> **Xmin:=min(90,91,92,95,95,96,96,97,97,97,99,100, 100, 101, 101, 102, 103, 103, 104, 104);**

$$Xmin := 90$$

> **Ymax:=max(159,160,162,164,164,165,165,166,168,169, 169, 170, 170, 171, 171, 172, 175, 175, 176, 181);**

$$Ymax := 181$$

> **Ymin:=min(159,160,162,164,164,165,165,166,168,169, 169,170,170,171,171,172,175,175,176,181);**

$$Ymin := 159$$

Qiymatlar qulachi :

> **R1:=Xmax–Xmin;** $R1 := 14$

> **R2:=Ymax–Ymin;** $R2 := 22$

Tuzatilgan qiymatlar qulochi:

> **R1:=16;** $R1 := 16$

> **R2:=30;** $R2 := 30$

Interval qadami :

> **h1:=R1/k1;h2:=R2/k2;** $h1 := 4$ $h2 := 6$

Birinchi intervalning chap qiymatini aniqlash :

> **x0:=X[1]–(h1*k1–R1);x0:=evalf(%,3);** $x0 := 90$ $x0 := 90.$

X ning qismiy intervallarni aniqlash:

> **for i to k1 do x[i]:=x0+(i–1)*h1; print(x[i],x[i]+h1) od;**

$$x_1 := 90. \quad 90., 94.$$

$$x_2 := 94. \quad 94., 98.$$

$$x_3 := 98. \quad 98., 102.$$

$$x_4 := 102. \quad 102., 106.$$

Intervallarga tushuvchi X ning qiymatlari soni–chastotasini aniqlash:

> **transform[tallyinto](X,[90..94,94..98,98..102, 102..106]);**

[*Weight*(90..94, 3), *Weight*(94..98, 7), *Weight*(98..102, 5), *Weight*(102..106, 5)]

> X:=transform[statsort](%);

$X := [\mathit{Weight}(90..94, 3), \mathit{Weight}(94..98, 7), \mathit{Weight}(98..102, 5), \mathit{Weight}(102..106, 5)]$

Intervallardagi X ning o'rta qiymatlari soni–chastotasini aniqlash:

> X:=transform[classmark](X);

$X := [\mathit{Weight}(92, 3), \mathit{Weight}(96, 7), \mathit{Weight}(100, 5), \mathit{Weight}(104, 5)]$

> X1:=transform[statvalue](X); $X1 := [92, 96, 100, 104]$

> nx:=transform[frequency](X); $nx := [3, 7, 5, 5]$

> nx:=[2,7,7,4]; $nx := [2, 7, 7, 4]$

Y ning qismiy intervallarni aniqlash:

> Y[1]:=155:

> y0:=Y[1]–(h2*k2–R2);y0:=evalf(%,3); $y0 := 155\; y0 := 155.$

> for i to k2 do y[i]:=y0+(i–1)*h2; print(y[i],y[i]+h2) od;

$y_1 := 155. \quad 155., 161.$

$y_2 := 161. \quad 161., 167.$

$y_3 := 167. \quad 167., 173.$

$y_4 := 173. \quad 173., 179.$

$y_5 := 179. \quad 179., 185.$

Intervallarga tushuvchi Y ning qiymatlari soni–chastotasini aniqlash:

> transform[tallyinto](Y,[155..161,161..167,167..173, 173..179, 179..185]);

$[\mathit{Weight}(155..161, 2), \mathit{Weight}(161..167, 6), \mathit{Weight}(167..173, 8), \mathit{Weight}(173..179, 3), 179..185]$

> Y:=transform[statsort](%);

$Y := [\mathit{Weight}(155..161, 2), \mathit{Weight}(161..167, 6), \mathit{Weight}(167..173, 8), \mathit{Weight}(173..179, 3), 179..185]$

Intervallardagi X ning o'rta qiymatlari soni–chastotasini aniqlash:

> Y:=transform[classmark](Y);

$Y := [\mathit{Weight}(158, 2), \mathit{Weight}(164, 6), \mathit{Weight}(170, 8), \mathit{Weight}(176, 3), 182]$

> Y1:=transform[statvalue](Y); $Y1 := [158, 164, 170, 176, 182]$

> ny:=transform[frequency](Y); $ny := [2, 6, 8, 3, 1]$

8.3. Ko'paytmalar usuli yordamida korrelyasiya koeffisientini hisoblash

Agar X va Y belgilar ustida kuzatish ma'lumotlari teng uzoqlikdagi variantali korrelyasion 2-jadval ko'rinishda berilgan bo'lsa,

$$u_i = \frac{x_i - C_1}{h_1}, \quad v_i = \frac{y_i - C_2}{h_2} \qquad (*)$$

shartli variantlarga o'tamiz. Bunda $C_1 - x_i$ variantlarni «soxta noli» bo'lib, uni korrelyasion jadvaldagi eng katta chastotaga mos ravishda olamiz. Tanlanma qadami $h_1 = x_{i+1} - x_i$. $C_2 - y_i$ variantlarni «soxta noli», $h_2 = y_{i+1} - y_i$.

Bu holda tanlanma korrelyasiya koeffisenti quyidagicha bo'ladi.

$$r_i = \frac{\sum n_{uv} uv - n\overline{u}\,\overline{v}}{n\sigma_u \sigma_v}$$

Bunda $\overline{u}, \overline{v}$, σ_u, σ_v lar ko'paytmalar usuli bilan yoki bevosita quyidagi formulalar bilan hisoblanadi

$$\overline{u} = \frac{\sum n_u u}{n}, \quad \overline{\vartheta} = \frac{\sum n_\vartheta \vartheta}{n},$$

$$\sigma_u = \sqrt{\overline{u^2} - (\overline{u})^2}, \quad \sigma_\vartheta = \sqrt{\overline{\vartheta^2} - (\overline{\vartheta})^2}$$

3-jadval

$\vartheta \backslash u$	–2	–1	0	1	n_ϑ
–2	1	1			2
–1	1	4	1		6
0		2	5	1	8
1			1	2	3
2				1	1
n_u	2	7	7	4	$n = 20$

Coxta nollar sifatida C_1=100 va C_2=170 ni tanlab (bu variantalar eng katta chastota n_{xy} =5 ning to'g'risida joylashgan), h_1=4 va h_2= 6 ekanligini e'tiborga olib (*) shartli variantalarga asosan 3-jadvalni tuzamiz, masalan

$$u_1 = \frac{x_1 - C_1}{h_1} = \frac{92 - 100}{4} = \frac{-8}{4} = -2,$$

$$v_1 = \frac{y_1 - C_2}{h_2} = \frac{158 - 170}{6} = \frac{-12}{6} = -2$$

kabi hisoblashlar bilan 3–jadvalni 1–satrini va 1– ustunini to'ldiramiz.

Bu 3–jadvaldagi ma'lumotlarga asoslanib korrelyasiya koeffisentini topish uchun, quyidagilarni hisoblaymiz:

$$\bar{u} = \frac{\sum n_u z}{n} = \frac{2(-2)+7(-1)+7\cdot 0+4\cdot 1}{20} = -\frac{7}{20} = -0,35$$

$$\bar{\vartheta} = \frac{\sum n_\vartheta \vartheta}{n} = \frac{2(-2)+6(-1)+8\cdot 0+3\cdot 1+1\cdot 2}{20} = -\frac{5}{20} = -0,25$$

$$\overline{u^2} = \frac{\sum n_u u^2}{n} = \frac{2(-2)^2+7(-1)^2+7\cdot 0^2+3\cdot 1^2+1\cdot 2^2}{20} = \frac{19}{20} = 0,95$$

$$\overline{\vartheta^2} = \frac{\sum n_\vartheta \vartheta^2}{n} = \frac{2(-2)^2+6(-1)^2+8\cdot 0^2+3\cdot 1^2+1\cdot 2^2}{20} = \frac{21}{20} = 1,05$$

$$\sigma_u = \sqrt{\overline{u^2}-(\bar{u})^2} = \sqrt{0,95-0,35^2} = \sqrt{0,8275} = 0,911$$

$$\sigma_\vartheta = \sqrt{\overline{\vartheta^2}-(\bar{\vartheta})^2} = \sqrt{1,05-0,25^2} = \sqrt{0,9875} = 0,991$$

$\sum n_{u\vartheta} u\vartheta$ ni topish uchun quyidagi 4 – jadvalni tuzamiz:

1)3–jadvaldagi har bir chastotani unga mos keluvchi u va ϑ larga ko'paytirib, shu kattalikni o'ng va chap burchagiga yozamiz;

2)o'ng burchakdagi sonlar yig'indisini $U=\sum n_{u\vartheta} u$ ustunga yozamiz va uni shu satrga mos ϑ ga ko 'paytirib $u\vartheta$ ustunga yozamiz;

3)chap burchakdagi sonlar yig'indisini $V=\sum n_{u\vartheta}\vartheta$ satrga yozamiz va uni shu ustunga mos u ga ko'paytirib uV ustunga yozamiz.

Hisoblashlarni tekshirish maqsadida oxirgi qator va ustundagi sonlar yig'indisini taqqoslaymiz:

$$\sum_U uV = \sum n_{u\vartheta} u\,\vartheta = 16, \quad \sum_\vartheta \vartheta V = \sum n_{u\vartheta} u\,\vartheta = 16$$

4 – j a d v a l

ϑ \ u	−2	−1	0	1	$U=\sum n_{u\vartheta} u$	ϑU
−2	$_{-2}\backslash 1 \backslash^{-2}$	$_{-2}\backslash 1 \backslash^{-1}$			−3	6
−1	$_{-1}\backslash 1 \backslash^{-2}$	$_{-4}\backslash 4 \backslash^{-4}$	$_{-1}\backslash 1 \backslash^{0}$		−6	6
0		$_{0}\backslash 2 \backslash^{-2}$	$_{0}\backslash 5 \backslash^{0}$	$_{0}\backslash 1 \backslash^{1}$	−1	0
1			$_{1}\backslash 1 \backslash^{0}$	$_{2}\backslash 2 \backslash^{2}$	2	2
2				$_{2}\backslash 1 \backslash^{1}$	1	2
$V=\sum n_{u\vartheta}\vartheta$	−3	−6	0	4		$\sum_\vartheta \vartheta V = 16$
uV	6	6	0	4	$\sum_U uV=16$	Tekshir.

Yig'indilarning bir xilligi hisoblashlar to'g'riligini ko'rsatadi. Tanlanma korrelyasiya koeffisientini hisoblaymiz:

$$r_T = \frac{\sum n_{u\vartheta} u\vartheta - n\bar{u}\bar{\vartheta}}{n\sigma_u\sigma_\vartheta} = \frac{16 - 20\cdot(-0.35)\cdot(-0.25)}{20\cdot 0.911\cdot 0.991} = 0.78$$

Bundan $r_T = 0.78 > 0.5$ bo 'lishi regression bog'lanish zichligining katta ekanligini ko'rsatadi.

8.1.2–M a p l e d a s t u r i:

3 — jadvalni tuzish :

> restart;with(stats[statplots]): Digits:=3:

> N1:=20:N2:=20:k1:=4:k2:=5:h1:=4:h2:=6:

> nx:=[2,7,7,4]; ny:=[2,6,8,3,1];

$$nx := [2, 7, 7, 4] \quad ny := [2, 6, 8, 3, 1]$$

> X1:= [92,96,100,104]; $XI := [92, 96, 100, 104]$

> Y1:=[158,164,170,176,182]; $YI := [158, 164, 170, 176, 182]$

> C1:=100: u:=[seq((X1[i]–C1)/h1,i=1..4)];

$u := [-2, -1, 0, 1]$

> C2:=170: v:=[seq((Y1[i]–C2)/h2,i=1..5)];

$v := [-2, -1, 0, 1, 2]$

$\bar{u}$ *ni hisoblash:*

> u0:=seq(u[i]*nx[i]/N1,i=1..4); $u0 := -\frac{1}{5}, -\frac{7}{20}, 0, \frac{1}{5}$

>u0:=add(u[i]*nx[i]/N1,i=1..4);u0:=evalf(%);

$$u0 := -\frac{7}{20} \quad u0 := -.350$$

> u20:=add(u[i]^2*nx[i]/N1,i=1..4); $u20 := \frac{19}{20}$

$\bar{v}$ *ni hisoblash:*

> v0:=seq(v[i]*ny[i]/N2,i=1..5);

$$v0 := -\frac{1}{5}, -\frac{3}{10}, 0, \frac{3}{20}, \frac{1}{10}$$

> v0:=add(v[i]*ny[i]/N2,i=1..5);v0:=evalf(%);

$$v0 := -\frac{1}{4} \quad v0 := -.250$$

> v20:=add(v[i]^2*ny[i]/N2,i=1..5); evalf(%);

$$v20 := \frac{21}{20} \quad 1.05$$

σ_u, σ_v larni hisoblash:

> sigma[1]:=sqrt(u20–u0^2);evalf(%); $\sigma_1 := 0.910 \quad 0.910$

> sigma[2]:=sqrt(v20–v0^2);evalf(%); $\sigma_2 := 0.994 \quad 0.994$

> nuv:=matrix([[1,1,0,0],[1,4,1,0],[0,2,5,1], [0,0,1,2],[0,0,0,1]]);

$$nuv := \begin{bmatrix} 1 & 1 & 0 & 0 \\ 1 & 4 & 1 & 0 \\ 0 & 2 & 5 & 1 \\ 0 & 0 & 1 & 2 \\ 0 & 0 & 0 & 1 \end{bmatrix}$$

$V=\sum n_{u\vartheta}\vartheta$ larni hisoblash:

> V[1]:=seq(v[i]*nuv[i,1],i=1..5);

$$V_1 := -2, -1, 0, 0, 0$$

V[1]:=add(v[i]*nuv[i,1], i=1..5); $V_1 := -3$

> V[2]:=seq(v[i]*nuv[i,2],i=1..5);

$$V_2 := -2, -4, 0, 0, 0$$

V[2]:=add(v[i]*nuv[i,2], i=1..5); $V_2 := -6$

> V[3]:=seq(v[i]*nuv[i,3],i=1..5);

$$V_3 := 0, -1, 0, 1, 0$$

V[3]:=add(v[i]*nuv[i,3], i=1..5); $V_3 := 0$

> V[4]:=seq(v[i]*nuv[i,4],i=1..5);

$$V_4 := 0, 0, 0, 2, 2$$

V[4]:=add(v[i]*nuv[i,4],i=1..5); $V_4 := 4$

> S2:=add(V[i]*u[i],i=1..4); $S2 := 16$

$U=\sum n_{u\vartheta}u$ larni hisoblash:

> U[1]:=seq(u[j]*nuv[1,j],j=1..4); $U_1 := -2, -1, 0, 0$

U[1]:=add(u[j]*nuv[1,j],j=1..4); $U_1 := -3$

> U[2]:=seq(u[j]*nuv[2,j],j=1..4); $U_2 := -2, -4, 0, 0$

U[2]:=add(u[j]*nuv[2,j], j=1..4); $U_2 := -6$

> U[3]:=seq(u[j]*nuv[3,j],j=1..4); $U_3 := 0, -2, 0, 1$

U[3]:=add(u[j]*nuv[3,j], j=1..4); $U_3 := -1$

> U[4]:=seq(u[j]*nuv[4,j],j=1..4); $U_4 := 0, 0, 0, 2$

U[4]:=add(u[j]*nuv[4,j], j=1..4); $U_4 := 2$

> U[5]:=seq(u[j]*nuv[5,j],j=1..4); $U_5 := 0, 0, 0, 1$

U[5]:=add(u[j]*nuv[5,j],j=1..4); $U_5 := 1$

> S1:=add(U[i]*v[i],i=1..5); $S1 := 16$

r_T–korrelyasiya koeffisientini hisoblash:

> rT:=(S1–N1*u0*v0)/(N1*sigma[1]*sigma[2]); rT:=evalf(%);

$rT := 0.785$ $rT := 0.785$

8.4. *Y* ning *X* ga regressiya to'g'ri chizig'ining tanlanma tenglamasini aniqlash

Y ning *X* ga regressiya to'g'ri chizig'ining tenglamasi

$$\bar{y}_x - \bar{y} = r_T \frac{\sigma_y}{\sigma_x}(x - \bar{x}) \qquad (*)$$

ni aniqlash uchun 3–jadvalda h_1=4, h_2=6, C_1=100, C_2=170 ekanligini e'tiborga olib, quyidagilarni topamiz:

$$\bar{x} = \bar{u}\, h_1 + C_1 = -0.35 \cdot 4 + 100 = 98.6$$

$$\bar{y} = \bar{\vartheta}\, h_2 + C_2 = -0.25 \cdot 6 + 170 = 168.5$$

$$\sigma_x = h_1\sigma_u = 4 \cdot 0.991 = 3.64$$

$$\sigma_y = h_2\sigma_\vartheta = 6 \cdot 0.991 = 5.95$$

Topilgan kattaliklarni (*) ga qo'yib, *Y* ning *X* ga regressiya to'g'ri chizig'ining tenglamasini hosil qilamiz:

$\bar{y}_x - 168.5 = 0.78\,(5.95/3.64)\,(x - 98.6)$

$\bar{y}_x - 168.5 = 1.27x - 125.2$

$$\bar{y}_x = 1.27x + 43.3$$

Endi bu tenglama bo'yicha shartli o'rtacha qiymatlarni hisoblaymiz:

$$\bar{y}_{92} = 1.27 \cdot 92 + 43.3 = 160.14$$

$\bar{y}_{96} = 1.27 \cdot 94 + 43.3 = 165.22$

$\bar{y}_{100} = 1.27 \cdot 100 + 43.3 = 170.3$

$\bar{y}_{104} = 1.27 \cdot 104 + 43.3 = 175.38$

2 – jadvaldagi ma'lumotlar bo'yicha shartli o'rtacha qiymatlarni topamiz:

$\bar{y}_{92} = (1 \cdot 158 + 1 \cdot 164)/2 = 161.0$

$\bar{y}_{96} = (1 \cdot 158 + 4 \cdot 164 + 2 \cdot 170)/7 = 164.8$

$\bar{y}_{100} = (1 \cdot 164 + 5 \cdot 170 + 1 \cdot 176)/7 = 170.0$

$\bar{y}_{104} = (1 \cdot 170 + 2 \cdot 176 + 1 \cdot 182)/4 = 176.0$

Ko'rinib turibdiki, topilgan regressiya to'g'ri chizig'ining tenglamasi bo'yicha hisoblangan va kuzatilgan shartli o'rtacha qiymatlarning mos kelishi qoniqarlidir.

8.5. Tanlanma korrelyasion nisbatini hisoblash

η_{ux} tanlanma korrelyasion nisbatini hisoblaymiz. U Y ning X ga bog'lanish zichligini aniqlaydi.

Buning uchun 2 – korrelyasion jadvaldagi ma'lumotlar bo'yicha quyidagilarni hisoblaymiz. Umumiy o'rtacha qiymat:

$$\bar{y} = (\sum n_y y)/n = \frac{1}{20}(2 \cdot 158 + 6 \cdot 164 + 8 \cdot 170 + 3 \cdot 176 + 1 \cdot 182) =$$

$$168{,}5$$

Umumiy o'rtacha kvadratik chetlanish:

$$\sigma_y = \sqrt{\frac{1}{n}\sum n_y (y-\bar{y})^2} = \{\frac{1}{20}[2 \cdot (158 - 168{,}5)^2 + 6\,(164 - 168{,}5)^2 +$$

$$+ 8\,(170 - 168{,}5)^2 + 3\,(176 - 168{,}5)^2 + 1\,(182 - 168{,}5)^2]\}^{1/2} = 5{,}95$$

Guruxlar aro o'rtacha kvadratik chetlanish:

$$\sigma_{\bar{y}_x} = \sqrt{\frac{1}{n}\sum n_x (\bar{y}_x - \bar{y})^2} = \{\frac{1}{20}[2 \cdot (161{,}0 - 168{,}5)^2 + 7 \cdot (164{,}8 - 168{,}5)^2 +$$

$$+ 7 \cdot (170{,}0 - 168{,}5)^2 + 4 \cdot (176{,}0 - 168{,}5)^2]\}^{1/2} =$$

$$= \{\frac{1}{20}[2 \cdot 56{,}25 + 7 \cdot 13{,}69 + 7 \cdot 3{,}25 + 4 \cdot 56{,}25)\}^{1/2} =$$

$$= \{\frac{1}{20}[112{,}50 + 95{,}83 + 22{,}75 + 225{,}0)\}^{1/2} = \sqrt{22{,}80} = 4{,}78$$

Endi tanlanma korrelyasion nisbatni topamiz:

$$n_{\bar{y}_x} = \frac{\sigma_{\bar{y}_x}}{\sigma_x} = 4{,}78/5{,}95 = 0{,}803$$

Y ning *X* ga regressiya to'g'ri chizig'ining tenglamasini aniqlash va tanlanma korrelyasion nisbatini hisoblash dasturi.

8.1.3–Maple dasturi:

Regressiya togri chizigini aniqlash :

```
> restart; Digits:=4:
> u0 :=-.350:v0:=-.250: rT :=.789:
> C1:=100:C2:=170:h1:=4:h2:=6:N1:=20:N2:=20:
> nx := [2, 7, 7, 4];ny := [2, 6, 8, 3, 1];
```

$$nx := [2, 7, 7, 4]\ ny := [2, 6, 8, 3, 1]$$

```
> sigma[1]:= .910: sigma[2]:= .994:
```

> x1:=u0*h1+C1; $x1 := 98.60$

> x1:=evalf(%); $x1 := 98.60$

> y1:=v0*h2+C2; $y1 := 168.5$

> y1:=evalf(%); $y1 := 168.5$

> Gx:=h1*sigma[1]; $Gx := 3.640$

> Gx:=evalf(%); $Gx := 3.640$

> Gy:=h2*sigma[2]; $Gy := 5.964$

> Gy:=evalf(%); $Gy := 5.964$

> Yx:=y1+rT*Gy*(x–x1)/Gx; $Yx := 41.0 + 1.293\,x$

Tekshirish

> x:=92:Yx;x:=96:Yx;x:=100:Yx;x:=104:Yx;

160.0 165.1 170.3 175.5

> Yx:=[160,165.1,170.3,175.5]:

η_{ux} tanlanma korrelyasion nisbatini hisoblash:

> Y1:=[158,164,170,176,182]; $Y1 := [158, 164, 170, 176, 182]$

> Yt:=add(ny[i]*Y1[i]/N2,i=1..5);Yt:=evalf(%);

$$Yt := \frac{337}{2}\quad Yt := 168.5$$

> sigmay:=add(ny[i]*(Y1[i]–Yt)^2/N2,i=1..5);

$$sigmay := 35.55$$

> sigma[y]:=sqrt(evalf(%)); $\sigma_y := 5.962$

> sigmaYx:=add(nx[i]*(Yx[i]–Yt)^2/N2,i=1..4);

$$sigmaYx := 22.20$$

> sigma[yx]:=sqrt(evalf(%)); $\sigma_{yx} := 4.712$

> eta[yx]:=sigma[yx]/sigma[y]; $\eta_{yx} := 0.7903$

8–laboratoriya ishi

bo'yicha mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

1. Tanlanmaning korrelyasion jadvalni tuzish.
2. Ko'paytmalar usuli yordamida korrelyasiya koeficentini hisoblash.

3. Y ning X ga regressiya to‘g‘ri chizig‘ining tanlanma tenglamasini yozish.

4. Tanlanma korrelyasion nisbatini hisoblash.

Quyidagi jadvaldagi 20 ta qiymatlarni talaba V –variantiga bog‘liq holda $x_i=X_i$+butun(i/V) va $y_i=Y_i$+butun(i/V), i=1,2,…,30 kabi oladi.

1 – j a d v a l

X	91	95	97	99	92	96	100	100	97	101
Y	160	169	162	168	164	164	165	169	159	170
X	97	95	102	98	101	99	103	104	104	103
Y	171	185	171	166	172	175	170	181	176	175

Masalan, V=2 da tuziladigan 1-jadval qiymatlarini quyidagicha topamiz:

i=1, $x_1=X_1$+butun(i/V)=91+ butun(1/2)=93,

$y_1=Y_1$+butun(i/V)= 160+butun(1/2)=162

………

i=10, $x_{10}=X_{10}$+butun(i/V)=101+ butun(10/2)=106,

$y_{10}=Y_{10}$+butun(i/V)= 170+butun(10/2)=175

9-LABORATORIYA ISHI

Korrelyasion jadval bo'yicha to'g'ri chiziqli va ikkinch darajali regressiya tenlamalarini kichik kvadratlar usulida aniqlash

Maqsad: Korrelyasion jadval bo'yicha qiymatlar orasidagi bog'lanishini ifodalovchi, *Y* ning *X* ga to'g'ri chiziqli va ikkinchi darajali, tenglamalarini kichik kvadratlar usulida aniqlash.

Reja:

1. Rregressiya bog'laninshining to'g'ri chiziqli tenlamasini aniqlash.
2. Regressiya bog'laninshining ikkinch darajali tenlamasini aniqlash.

Quyidagi korrelyasion jadval berilgan bo'lsin:

1–jadval

Y/X	92	96	100	104	n_y
158	1	1			2
164	1	4	1		6
170		2	5	1	8
176			1	2	3
182				1	1
n_x	2	7	7	4	N=20
$\bar{y}_x$	161	164.8	170	176	

9.1. To'g'ri chiziqli bog'laninsh regressiya tenglamasini topish

Berilgan jadvaldagi ma'lumotlar bo'yicha y ning x ga regressiya to'g'ri chizig'ining tanlanma tenglamasini

$$y_x = ax + b \qquad (9.1)$$

ko'rinishda izlaylik.

Buning uchun a, b parametrlarni topish uchun, quyidagi

$$F(a,b) = \sum \left(y_{xi} - \bar{y}_{xi}\right)^2 n_{xi} = \sum \left(ax_i + b - \bar{y}_{xi}\right)^2 n_{xi}$$

farqlarning kvadratlari minimal bo'ladigan qilib tanlab olish imkonini beruvchi quyidagi tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\frac{\partial F(a,b)}{\partial a} = 2\sum \left(ax_i + b - \bar{y}_{x_i}\right) x_i n_{x_i} = 0$$

$$\frac{\partial F(a,b)}{\partial b} = 2\sum\left(ax_i + b - \overline{y}_{x_i}\right)n_{x_i} = 0$$

bu sistemadan:

$$\left.\begin{aligned}\left(\sum n_x x^2\right)a + \left(\sum n_x x\right)b &= \sum n_x x\cdot\overline{y}_x \\ \left(\sum n_x x\right)a + nb &= \sum n_x\overline{y}_x\end{aligned}\right\} \quad (9.2)$$

Bu sistemani echib, a, b – parametrlarni aniqlovchi munosabatlarga ega bo‘lamiz.

$$a = \frac{n\sum n_x x\cdot\overline{y}_x - \sum n_x x\cdot\sum n_x\overline{y}_x}{n\sum n_x x^2 - \left(\sum n_x x\right)^2} \quad (9.3)$$

$$b = \frac{\sum n_x\overline{y}_x\cdot\sum n_x x^2 - \sum n_x x\cdot\sum n_x x\overline{y}_x}{n\sum n_x x^2 - \left(\sum n_x x\right)^2} \quad (9.4)$$

9.1–masala. Berilgan 1–korrelasion jadvaldagi ma’lumotlar asosida quyidagi 2–jadvalni ko‘paytmalar usulida tuzamiz:

2–jadval.

n_x	x	$\overline{y}_x$	$n_x x$	$n_x x^2$	$n_x\overline{y}_x$	$n_x x\overline{y}_x$
2	92	161	164	16928	316	29624
7	96	164,8	672	64512	1154	40746
7	100	170	700	70000	1190	119000
4	104	176	416	43264	704	73216
20			1972	1947004	3370	332586

2-jadvaldagi oxirgi qatorga yozilgan qiymatlarni (9.3) va (9.4) ga qo‘yib,

$$a = \frac{20\cdot 332586 - 1972\cdot 3370}{20\cdot 19477004 - 1972^2} = 1{,}3,$$

$$b = \frac{3370\cdot 194704 - 1972\cdot 332586}{20\cdot 194704 - 1972^2} = 40{,}8$$

topilgan a va b larning qiymatlari asosida izlanayotgan regressiya tenglamasi:

$$y_x = ax + b = 1.3x + 40.8$$

bu tenglama bo'yicha hisoblanadigan y_{xi} qiymatlar kuzatilgan $\overline{y}_{xi}$ qiymatalarga qanchalik mos kelishini topish uchun. y_{xi} va $\overline{y}_{xi}$ qiymatlari orasidagi farqlarni aniqlash maqsadida quyidagi jadvalni tuzamiz:

3–jadval

x_i	y_{xi}	$\overline{y}_{xi}$	$y_{xi} - \overline{y}_{xi}$
92	160.4	161	–0.6
96	165.4	164.8	0.8
100	170.8	170	0.8
104	176	176	0

Jadvaldagi farqlar bog'lanishining aniqligini ifodalab beradi. Bu jadvaldan ko'rinadiki chetlanishlarning hammasi ham yetarlicha kichik emas. Bu kuzatishlar sonining kamligi bilan izoxlanadi.

1.Berilgan korrelasion jadval asosida Y ning X ga regressiya to'g'ri chizig'ining tenglamasi topishda kichik kvadratlar usulida tuzilgan sistema koeffisentlarini ko'paytmalar usulida topishning Maple dasturini tuzamiz.

9.1.1–M a p l e d a s t u r i:

> restart; with(stats):

1)*korrelasion jadval asosida X va Y larini kiritish:*

> X:= Vector([92,96,100,104]);

$$X := \begin{bmatrix} 92 \\ 96 \\ 100 \\ 104 \end{bmatrix}$$

Y:= Vector([158,164,170,176,182]);

$$Y := \begin{bmatrix} 158 \\ 164 \\ 170 \\ 176 \\ 182 \end{bmatrix}$$

2)*korrelasion jadval asosida n_x va n_{xy} chastotalarni kiritish:*

> nx:=Vector([2,7,7,4]); $nx := \begin{bmatrix} 2 \\ 7 \\ 7 \\ 4 \end{bmatrix}$

> nxy:=matrix([[1,1,0,0],[1,4,1,0],[0,2,5,1], [0,0,1,2],[0,0,0,1]]);

$$nxy := \begin{bmatrix} 1 & 1 & 0 & 0 \\ 1 & 4 & 1 & 0 \\ 0 & 2 & 5 & 1 \\ 0 & 0 & 1 & 2 \\ 0 & 0 & 0 & 1 \end{bmatrix}$$

3)*korrelasion jadval asosida shartli o 'rta qiymatlarni hisoblash:*

> Yx[1]:=(Y[1]*nxy[1,1]+Y[2]*nxy[2,1]+Y[3]*nxy[3,1]+Y[4]*nxy[4,1]+Y[5]*nxy[5,1])/nx[1];

$$Yx_1 := 161$$

> Yx[2]:=(Y[1]*nxy[1,2]+Y[2]*nxy[2,2]+Y[3]*nxy[3,2]+Y[4]*nxy[4,2]+Y[5]*nxy[5,2])/nx[2];

$$Yx_2 := \frac{1154}{7}$$

> evalf(%,4); 164.9

> Yx[3]:=(Y[1]*nxy[1,3]+Y[2]*nxy[2,3]+Y[3]*nxy[3,3]+Y[4]*nxy[4,3]+Y[5]*nxy[5,3])/nx[3];

$$Yx_3 := 170$$

> Yx[4]:=(Y[1]*nxy[1,4]+Y[2]*nxy[2,4]+Y[3]*nxy[3,4]+Y[4]*nxy[4,4]+Y[5]*nxy[5,4])/nx[4];

$$Yx_4 := 176$$

4)*korrelasion jadval asosida X ning qiymatlar soni n va tanlanma xajmi N qiymatlarni kiritish:*

> n:=4:N:=20:

5)2-*jadvalning qiymatlarni ko'paytmalar usulidagi hisoblash:*

> Sx:=add(X[k]*nx[k],k=1..n); $Sx := 1972$

> Sxx:=add(nx[k].X[k]^2,k=1..n); $Sxx := 194704$

> SYx:=add(nx[k].Yx[k],k=1..n); $SYx := 3370$

> SxYx:=add(nx[k].X[k].Yx[k],k=1..n); $SxYx := 332624$

6)*kichik kvadratlar usulida tuzilgan sistemani yechish:*

> ab:=solve([a*Sxx+b*Sx=SxYx,a*Sx+b*N=SYx],{a,b});

$$ab := \left\{a = \frac{855}{662}, b = \frac{13622}{331}\right\}$$

> evalf(%,4); $\{a = 1.292, b = 41.15\}$

7)*regressiya to'g'ri chizig'ining tenglamasini yozish:*

> y:=ab[1]*x+ab[2];evalf(%,4);

$$y := x\,a + b = \frac{855}{662}\,x + \frac{13622}{331}$$

$$x\,a + b = 1.292x + 41.15$$

2.Berilgan korrelasion jadval asosida Y ning X ga regressiya to'g'ri chizig'ining tenglamasi topishda fit asfunksiyasidan foydalanib Maple dasturini tuzamiz.

9.1.2–M a p l e d a s t u r i:

> restart;with(stats):

1)*1–korrelasion jadval asosida X va Y larining qiymatlarini chastotalari bilan satr bo'yicha kiritish:*

> W:=[[Weight(92,1),Weight(96,1),Weight(92,1), Weight(96,4),Weight(100,1),Weight(96,2),Weight(100,5), Weight(104,1),Weight(100,1),Weight(104,2),Weight(104,1)], [Weight(158,1),Weight(158,1),Weight(164,1),Weight(164,4), Weight(164,1),Weight(170,2),Weight(170,5), Weight(170,1), Weight(176,1),Weight(176,2), Weight(182,1)]];

$W := [[\,Weight(92, 1), Weight(96, 1), Weight(92, 1), Weight(96, 4), Weight(100, 1), Weight(96, 2), Weight(100, 5), Weight(104, 1), Weight(100, 1), Weight(104, 2), Weight(104, 1)\,], [\,Weight(158, 1), Weight(158, 1), Weight(164, 1), Weight(164, 4), Weight(164, 1), Weight(170, 2), Weight(170, 5), Weight(170, 1), Weight(176, 1), Weight(176, 2), Weight(182, 1)\,]]$

2) *X va Y larining qiymatlari bo'yicha (x,y) larni koordinatalar sistemasida aniqlash:*

> statplots[scatterplot](W[1],W[2],color=blue, symbol=BOX,symbolsize=20);(9.1–rasm)

3)*regressiya to'g'ri chizig'ining tenglamasini aniqlash:*

> x:=vector(transform[statvalue](W[1]));

$$x := [\;92\;\;96\;\;92\;\;96\;\;100\;\;96\;\;100\;\;104\;\;100\;\;104\;\;104\;]$$

> y:=vector(transform[statvalue](W[2]));

$$y := \begin{bmatrix} 158 & 158 & 164 & 164 & 164 & 170 & 170 & 170 & 176 & 176 & 182 \end{bmatrix}$$

> fit[leastsquare[[x,y]]](W);evalf(%,5);

$$y = \frac{13622}{331} + \frac{855}{662}x \quad y = 41.154 + 1.2915x$$

4)*regressiya to'g'ri chizig'ini qurish:*

> with(plots):

> plot([[x[i],y[i],i=1..11],41.154+1.2915*x], x=90..104. 156..182,style=[point,line],symbol=BOX, color=[red,blue], view=[90..105,150..185], symbolsize=20); (9.2–rasm)



9.1–rasm.



9.2–rasm.

9.2. Ikkinchi darajali bog'lanishning regressiya tenglamasini topish

Maqsad: Ikkinchi darajali regressiya bog'lanishning tenglamani topishni o'rganish

Reja: Ikkinchi darajali regressiya bog'lanishning tenglamasini aniqlash.

Ikkinch darajali regressiya tenglamasini topishni quyidagi misol orqali izohlaymiz. Soddaroq bo'lishi uchun kichikroq jadval, hamda chiziqli bo'lmagan eng ommalashgan holi–kvadrat uchhad ko'rinishi bilan chegaralanamiz.

9.2–masala. Quyidagi korrelyasion jadvalda keltirilgan ma'lumotlar bo'yicha $y=ax^2+bx+c$ regressiya tenglamasini eng kichik kvadratlar usuli yordamida topamiz.

4–jadval

$y \setminus x$	2	3	5	n_y
25	20			20
45		30	1	31
110		1	48	49
n_x	20	31	49	N=100

Yechish. Buning uchun a, b, c parametrlarni

$$F(a,b,c)=\sum\left(y_{x_i}-\bar{y}_{x_i}\right)^2 n_{x_i}=\sum\left(ax_i^2+bx_i+c-\bar{y}_{x_i}\right)^2 n_{x_i}$$

farqlarning kvadratlari minimal bo'ladigan qilib tanlab olish imkonini beruvchi quyidagi tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\frac{\partial F(a,b,c)}{\partial a}=2\sum\left(ax_i^2+bx_i+c-\bar{y}_{x_i}\right)x_i^2 n_{x_i}=0$$

$$\frac{\partial F(a,b,c)}{\partial b}=2\sum\left(ax_i^2+bx_i+c-\bar{y}_{x_i}\right)x_i n_{x_i}=0$$

$$\frac{\partial F(a,b,c)}{\partial c}=2\sum\left(ax_i^2+bx_i+c-\bar{y}_{x_i}\right)n_{x_i}=0$$

bu sistemadan:

$$\begin{cases}\left(\sum n_x x^4\right)a+\left(\sum n_x x^3\right)b+\left(\sum n_x x^2\right)c=\sum n_x \bar{y}_x x^2\\ \left(\sum n_x x^3\right)a+\left(\sum n_x x^2\right)b+\left(\sum n_x x\right)c=\sum n_x \bar{y}_x x\\ \left(\sum n_x x^2\right)a+\left(\sum n_x x\right)b+nc=\sum n_x \bar{y}_x\end{cases}\qquad(*)$$

Bu sistemadagi yig'indilarni quyidagicha topamiz:
4–jadval asosida shartli o'rta qiymatlarni topamiz.

$$\bar{y}_2=\frac{25\cdot 20}{20}=25$$

$$\bar{y}_3=\frac{45\cdot 30+110\cdot 1}{31}=47{,}1$$

$$\bar{y}_5=\frac{45\cdot 1+110\cdot 48}{49}=108{,}67$$

5–jadval.

x	n_x	$\bar{y}_x$	$n_x x$	$n_x x^2$	$n_x x^3$	$n_x x^4$	$n_x \bar{y}_x$	$n_x \bar{y}_x x$	$n_x \bar{y}_x x^2$
2	20	25	40	80	160	320	500	1000	2000
3	31	47,1	93	279	837	2511	4380	13140	13141
5	49	108,67	245	12285	6125	30625	5325	26625	133121
$\sum$	100		378	1584	7122	33456	7285	32004	148262

5–jadval oxirida turgan yig'indilarni (*) sistemaga qo'yib, quyidagi sistemani hosil qilamiz:

$$\begin{cases} 33456\,a + 7122\,b + 1584\,c = 148262 \\ 7122\,a + 1584\,b + 378\,c = 32004 \\ 1584\,a + 378\,b + 100\,c = 7285 \end{cases}$$

Sistemani echib, a=2.94, b=7.27, c =–1,25 qiymatlarni topamiz va bu qiymatlarni regressiya tenglamasi:

$$\bar{y}_x = ax^2 + bx + c$$

ga qo'yib,

$$\bar{y}_x = 2.94\,x^2 + 7.27x \ -1.25$$

regressiya tenglamasiga ega bo'lamiz.

1. Berilgan korrelasion jadval asosida Y ning X ga regressiya chizig'i $\bar{y}_x = ax^2 + bx + c$ ning tenglamasini topishda kichik kvadratlar usulida tuzilgan sistema koeffisentlarini ko'paytmalar usulida topishning Maple dasturini tuzamiz.

9.2.2a–M a p l e d a s t u r i:

> restart;with(stats):

1)4–*korrelasion jadval asosida X va Y larini kiritish:*

> X:=Vector([2,3,5]);

$$X := \begin{bmatrix} 2 \\ 3 \\ 5 \end{bmatrix}$$

> Y:=Vector([158.164,170,176,182]);

$$Y := \begin{bmatrix} 158 \\ 164 \\ 170 \\ 176 \\ 182 \end{bmatrix}$$

2)*korrelasion jadval asosida* n_x *va* n_{xy} *chastotalarni kiritish:*

> nx:=Vector([20,31,49]);

$$nx := \begin{bmatrix} 20 \\ 31 \\ 49 \end{bmatrix}$$

> nxy:=matrix([[20,0,0],[0,30,1],[0,1,48]]);

$$nxy := \begin{bmatrix} 20 & 0 & 0 \\ 0 & 30 & 1 \\ 0 & 1 & 48 \end{bmatrix}$$

3)*korrelasion jadval asosida shartli o 'rta qiymatlarni hisoblash:*

> Yx[1]:=(Y[1]*nxy[1,1]+Y[2]*nxy[2,1]+Y[3]*nxy[3,1])/nx[1];

$$Yx_1 := 25$$

> Yx[2]:=(Y[1]*nxy[1,2]+Y[2]*nxy[2,2]+Y[3]*nxy[3,2])/nx[2];

$$Yx_2 := \frac{1460}{31}$$

> evalf(%,4); 47.10

> Yx[3]:=(Y[1]*nxy[1,3]+Y[2]*nxy[2,3]+Y[3]*nxy[3,3])/ nx[3];

$$Yx_3 := \frac{5325}{49}$$

> evalf(%,4); 108.7

4)*korrelasion jadval asosida X ning qiymatlar soni n va tanlanma xajmi N qiymatlarni kiritish:*

> n:=3:N:=100:

5)*5– jadvalning qiymatlarni ko'paytmalar usulidagi hisoblash:*

> Sx:=add(X[k]*nx[k],k=1..n); $Sx := 378$

> Sxx:=add(nx[k]*X[k]^2,k=1..n); $Sxx := 1584$

> Sxxx:=add(nx[k]*X[k]^3,k=1..n); $Sxxx := 7122$

> Sxxxx:=add(nx[k]*X[k]^4,k=1..n); $Sxxxx := 33456$

> SYx:=add(nx[k]*Yx[k],k=1..n); $SYx := 7285$

> SxYx:=add(nx[k]*X[k]*Yx[k],k=1..n); $SxYx := 32005$

> SxxYx:=add(nx[k]*X[k]^2*Yx[k],k=1..n); $SxxYx := 148265$

6)*kichik kvadratlar usulida tuzilgan sistemani yechish:*

> abc:=solve({a*Sxxxx+b*Sxxx+c*Sxx=SxxYx,
a*Sxxx+b*Sxx+c*Sx=SxYx,
a*Sxx+b*Sx+c*N=SYx},{a,b,c});

$$abc := \left\{ a = \frac{26405}{9114}, b = \frac{69365}{9114}, c = -\frac{2750}{1519} \right\}$$

> evalf(%,4);

$$\{b = 7.611, c = -1.810, a = 2.897\}$$

7)*regressiya egri chizig'ining tenglamasini yozish:*

> y:=abc[1]*x^2+abc[2]*x+abc[3];

$$y := x^2 a + x b + c = \frac{26405}{9114} x^2 + \frac{69365}{9114} x - \frac{2750}{1519}$$

```
> y:=evalf(%,4);
```

$$y := x^2 a + x b + c = 2.897 x^2 + 7.611 x - 1.810$$

2.Berilgan korrelasion jadval asosida Y ning X ga regressiya chizig'i $\overline{y}_x = ax^2 + bx + c$ ning tenglamasini topishda fit asfunksiyasidan foydalanib Maple dasturini tuzamiz.

9.2.2b-M a p l e d a s t u r i:

```
> restart; with(stats):
```

1)*4–korrelasion jadval asosida X va Y larining qiymatlarini chastotalari bilan satr bo'yicha kiritish:*

```
> W:=[[Weight(2,20),Weight(3,30),Weight(5,1), Weight(3,1),
Weight(5,48)], [Weight(25,20), Weight(45,30), Weight(45,1),
Weight(110,1), Weight(110,48)]];
```

$$W := [[Weight(2, 20), Weight(3, 30), Weight(5, 1), Weight(3, 1), Weight(5, 48)], [Weight(25, 20), Weight(45, 30), Weight(45, 1), Weight(110, 1), Weight(110, 48)]]$$

2) *X va Y larining qiymatlari bo 'yicha (x,y) larni koordinatalar sistemasida aniqlash:*

```
> statplots[scatterplot](W[1],W[2],color=blue, symbol=BOX,
symbolsize=20);
```
(9.3–rasm)

3)*regressiya eg'ri chizig'ining tenglamasini aniqlash:*

```
> x:=vector(transform[statvalue](W[1]));
```

$$x := [\,2\;\;3\;\;5\;\;3\;\;5\,]$$

```
> y:=vector(transform[statvalue](W[2]));
```

$$y := [\,25\;\;45\;\;45\;\;110\;\;110\,]$$

```
> fit[leastsquare[[x,y],y=a*x^2+b*x+c]](W);
```

$$y = \frac{26405}{9114} x^2 + \frac{69365}{9114} x - \frac{2750}{1519}$$

```
> evalf(%,5);
```

$$y = 2.8972 x^2 + 7.6108 x - 1.8104$$

4)*regressiya eg'ri chizig'ini qurish:*

```
> with(plots):
> plot([[x[i],y[i]],i=1..5],2.8972*x^2+7.6108*x-1.8104], x=-1..6,-
4..112,style=[point,line], color=[red,blue],symbol=BOX,symbolsize=25,
view=[-1..6,-4..112],thickness=3);
```
(9.4–rasm)





9.3–rasm. 9.4–rasm.

9-laboratoriya ishi
bo'yicha mustaqil ishlash uchun topshiriqlar

Quyidagi korrelyatsion jadval asosida kichik regression bog'lanishining to'g'ri chiziqi va ikkinch darajali tenlamasini kichik kvadratlar usulida aniqlang.

1.1–15 variantlar uchun 1–korrelyasiya jadval (o'rta qavs ichidagi sonning butun qismi, v–talaba varianti).

1–korrelyasya jadval

Y/X	92	96	100	104	n_y
158	[(30–v)/10]	[(30–v)/7]	0	0	
164	[(30–v)/5]	[(30–v)/6]	[(30–v)/15]	0	
170	[(30–v)/8]	[(30–v)/5]	[(30–v)/7]	[(30–v)/9]	
176	0	[(30–v)/7]	[(30–v)/4]	[(30–v)/3]	
182	0	0	[(30–v)/3]	[(30–v)/6]	
n_x					N=
$\overline{y}_x$					

3. 16–30 variantlar uchun 2–korrelyasya jadval (o'rta qavs ichidagi sonning butun qismi olinadi)

2–korrelyasiya jadval

Y/X	92	96	100	104	n_y
158	[(35–v)/2]	[(35–v)/7]	0	0	
164	[(35–v)/5]	[(35–v)/2]	[(35–v)/3]	0	
170	[(35–v)/3]	[(35–v)/5]	[(35–v)/4]	[(35–v)/2]	
176	0	[(35–v)/7]	[(35–v)/3]	[(35–v)/3]	

182	0	0	[(35–v)/2]	[(35–v)/6]	
n_x					N=
$\bar{y}_x$					

Masalan, korrelyatsion jadvalni hosil qilish. V=1 bo'lsa, bu jadval quyidagicha bo'ladi:

Y/X	92	96	100	104	n_y
158	2	4			6
164	5	4	1		10
170	3	5	4	3	15
176		4	7	9	20
182			9	4	13
n_x	10	17	21	16	N=64
$\bar{y}_x$	164.4	167,2	176.8	176.4	

Bunda $\bar{y}_x$ –shartli o 'rtachalarni topish:

X=92 ga mos :

$\bar{y}_{92}$ =(158*2+164*5+170*3+176*0+182*0)/10=164.4

X=96 ga mos: $\bar{y}_{96}$ =(158*4+164*4+170*5+176*4+182*0)/17=167.2

X=100 ga mos:

$\bar{y}_{100}$ =(158*0+164*1+170*4+176*7+182*9)/21=176.8

X=104 ga mos:

$\bar{y}_{104}$ =(158*0+164*0+170*3+176*9+182*4)/16=176.4

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Claudio Canute, Anita Tabacco. Mathematical Analysis I,II.Springer–Verlag Italia, Milan 2015.
2. Erwin Kreyszig . Advanced engineering mathematics. USA NewYork 2011.
3. Ninth Edition. Calculus. USA. 2010.
4. Abduhamidv A., Xudoynazarov S. Hisoblash usullridan mashq va laboratoriya ishlari. T.O'qituvchi . 1995-y.
5. Abduqodirov A.. Hisoblash matematikasi va dasturlashdan laboratoriya ishlari. T: O'qituvchi. 1993y.
6. Abduqodirov A.A., Fozilov F.I. Umurzakov T.N. Hisoblash matematikasi va programmalash. Toshkent. Uqituvchi. 1989-y.
7. Бахвалов Н.С. Численные методы. М.: Наука, 1973 г.
8. Демидович Б.П., Марон И.А., Основы вкчислительной математики. М. "Наука", 1970 г.
9. Исроилов М.И. Хисоблаш усуллари. Тошкент. Ўкитувчи. 1,2к, 2007 й.
10. Копченова Н.В. Марон И.А. Вычислительная математика в примерах и задачах.М. "Наука". 1972 г.
11. Крилов В.И. Бобков В.В.Монастырский П.И. Вычислительные методы высшей математики в 2–х томах.Минск, Высшая шк., 1972–1975. т. 1–2.
12. Mirzakarimov E.M. Sonli hisoblash usillari va dasturlash, O'quv qo'llanma, №8,28.05.2009y, 2010y dekabr, ZiyoNet: 28.11.11 da, WWW/http// Ziyonet/get.file.php?file=2nuz_473_20100417144420.rar .
13. Ракитин В.И., Первушин В.Е. Практическое руководство по методом вычислений. –М.: 1998.
14. Самарский А.А. Методы вычислений. М.: Наука, 1972 г.
15. Сборник задач по методам вычислений. Под ред. Монастырский П.И.1982 г.
16. Шнейдер В.Е., Слуцкий А.И., Шумов А.С.. Олий математика қисқача курси. –Т.:, «Ўқитувчи», 1985, 1, 2 қ.

Mundarija

E.M.Mirzakarimov

OLIY MATEMATIKA

fanidan

L A B O R A T O R I Y A ishlarini M A P L E dasturida bajarish

"Excellent Polygraphy" nashriyoti

Muharrir: A.Abdujalilov
Musahhih: N.Ablayev
Sahifalovchi: V.Sanoyev
Dizayner: D.O'rinova

2020-yil 25-oktabrda chop etishga ruxsat berildi.
Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. «Times New Roman» garniturasi.
Bosma tabog'i 13,0. Adadi 100 dona. Buyurtma № 8/06.

«Excellent Polygraphy» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100190, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani,
Jangox ko'chasi 12 uy,13 xonadon.

978-9943-993-53-2